Книжная палата
ЎзССР Давлат китоб палатаси
Гос. книжная палата УзССР

Тошкент оқшоми

Ижтимоий-сиёсий шаҳар газетаси



Газета 1966 йил 1 июлдан чиқа бошлаган

№ 59 (8. 257) ◆ 1993 йил ◆ 2 апрель, жума ◆ Нархи 5 сўм

СУРАТДА: учрашув пайти.

ПРЕЗИДЕНТ ҲУЗУРИДА ҚАБУЛ

1 апрель куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов Малайзия Бош вазири Маҳатҳир бин Муҳаммад бошлиқ ҳукумат делегациясини қабул қилди.

Бўлиб ўтган самимий суҳбат чоғида икки мамлакат ўртасидаги алоқаларнинг ҳозирги даражаси, уларни янада ривожлантириш йўналишлари атрофлича муҳокама қилинди. Давлат бошлиғи ва ҳукумат раҳбари икки томонлама савдо-иқтисодий, маданий ва илмий алоқаларни такомиллаштириш истиқболлари хусусида фикрлашдилар.

Қабул маросимида Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А. Муталов, Бош вазир ўринбосарлари Қ. Ҳаққулов, Ў. Султонов, ташқи ишлар вазири С. Сафоев ва бошқа расмий кишилар иштирок этдилар.

Суҳбат чоғида Малайзиянинг Ўзбекистон Республикасидаги фавқулодда ва мухтор элчиси Муҳаммад Ҳорун ҳам ҳозир бўлди.

Шу куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримов ва Малайзия Бош вазири Маҳатҳир бин Муҳаммад оммавий ахборот воситалари вакиллари билан учрашиб, мухбирларнинг саволларига батафсил жавоб бердилар.

(ЎзА).

ТАШРИФНИНГ ИККИНЧИ КУНИ

Малайзия Бош вазири Маҳатҳир бин Муҳаммад бошлиқ ҳукумат делегацияси Ўзбекистонга сафарининг иккинчи куни Алишер Навоий ҳазратлари ҳайкали пойига гулчамбар қўйишдан бошланди.

Ўзбекистон Республикаси ва Малайзия давлат байроқлари рамзларини кўтариб олган тошкентликлар мартабали меҳмонни шодиёна қарши олдилар.

Малайзия Бош вазири Маҳатҳир бин Муҳаммаднинг Ўзбекистон миллий боғига ташрифи ва Алишер Навоий ёдгорлиги зиёрати чоғида унга Ўзбекистон Республикаси Бош вазири Абдулҳошим Муталов ва бошқа расмий кишилар ҳамроҳлик қилдилар.

Шу куни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасида Ўзбекистон — Малайзия музокаралари давом эттирилди.

Ўзбекистон Республикаси Бош вазири Абдулҳошим Муталов ва Малайзия Бош вазири Маҳатҳир бин Муҳаммад ҳар икки мамлакат расмий делегациялари ўртасидаги мулоқотлар, музокаралар самарали бўлганлигини мамнуният билан таъкидладилар. Жумладан, Ўзбекистон ва Малайзия ташқи ишлар вазирлари мамлакатлар ўртасида ахборот алмашиш ҳақидаги битимни ҳамда Ўзбекистон Республикаси ҳукумати билан Малайзия ҳукумати ўртасида дўстона муносабатларни ва ўзаро манфаатли ҳамкорликни ривожлантириш тўғрисидаги муддаолар протоколини имзоладилар.

Ўзбекистон ва Малайзия ишбилармонларининг нефть конларини қидириб топиш ва қайта ишлаш, ёғ ишлаб чиқариш соҳаларида қўшма корхоналар қуриш юзасидан аҳдлашуви рағбатлантиришга лойиқ деб топилди.

* * *

Малайзиялик меҳмонлар шу куни Ўзбекистон пойтахтининг диққатга сазовор жойларини томоша қилдилар.

Кун давомида В. Чкалов номидаги Тошкент авиация ишлаб чиқариш бирлашмасида ҳамда Тошкент чинни заводида бўлиб, жамоаларнинг меҳнат шароитлари билан танишдилар.

(ЎзА).

МАЛАЙЗИЯ БОШ ВАЗИРИНИНГ РАФИҚАСИ ТОШКЕНТДА

Республикамизга расмий дўстона ташриф буюрган Малайзия Бош вазири Маҳатҳир бин Муҳаммаднинг рафиқаси — Сити Ҳасмабону республика пойтахтининг ҳаёти билан танишишда давом этди. 1 апрель куни олий мартабали меҳмон Ўзбекистон амалий санъат музейининг халқ усталари ноёб ишлари қўйилган кўргазмасини кўздан кечирди. Шундан кейин Сити Ҳасмабону «Шарқ гули» бадиий кашталик фабрикасига борди.

Сўнгра меҳмон Ўзбекистон Соғлиқни сақлаш вазирлигининг республика ташхис марказида бўлди. Марказ раҳбарлари бу ерда турли касалликларни эрта аниқлаш, уларни даволашнинг замонавий усулларини яратиш соҳасида қилинаётган ишлар ҳақида гапириб бердилар.

Тошкент бўйлаб қилинган сафарда Сити Ҳасмабонуга Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг рафиқаси Ҳуринисо Муталова ҳамроҳ бўлди.

(ЎзА мухбири).

ИМКОНИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИБ

КУНИ кеча пойтахтимизнинг Ржевский кўчасида яна битта турар жой биноси фойдаланишга топширилди. Бу ерда қурилиш ишларини Тошкент давлат акционерлик қурилиш корпорациясига қарашли 1-уйсозлик комбинати 26-қурилиш бошқармасининг азамат қурувчилари амалга оширишди.

— Умумий сатҳи 2780 квадрат метрни ташкил этган уйни ҳозирги ҳолга келтиришнинг ўзи бўлмади, — дейди комбинат директори Аҳрор Саидов. — Чунки ҳозир ҳар бир уйни қуриш учун бир қанча тўсиқларга дуч келишингиз аниқ. Гапим қуруқ бўлмаслиги учун бунга бир неча мисол келтирсам. Ўтган йили биринчидан қурилиш материалларининг тақчил бўлганлиги ишимизнинг белига тепди. Сабаби биз асосий хом ашёларимиздан бири бўлган металлни бошқа республикалардан келтирамиз.

Ҳа, комбинат раҳбарининг юқоридаги айтган фикрлари тўғри. Бугунги кунда иқтисодиётимизнинг ҳамма соҳаларида бўлгани каби қурилиш майдонларида ҳам бир қатор муаммолар йиғилиб қолди. Шунга қарамасдан бинокорларимиз ўз ички имкониятларини тўла ишга солган ҳолда мазкур 9 қаватли турар жой биносини фойдаланишга топширди. Бу билан улар уйга муҳтож бўлган яна 36 ҳамшаҳримиз оиласи қувончига қувонч бағишлади.

Ғулом ЮСУПОВ.

Бугунги кун нафаси

РЕСПУБЛИКАМИЗДА

● Тошкентдаги Киночилар уйида Малайзия ҳукумат делегацияси таркибига кирган савдо-саноат доиралари вакилларининг Ўзбекистон ишбилармонлари билан учрашуви бўлиб ўтди. Икки мамлакат савдо-саноат гуруҳлари ўн шўъбада ўзаро фойдали ҳамкорлик қилиш юзасидан фикр алмашдилар.

● Тўрақўрғон трактор-таъмирлаш заводида енгил автомобиллар учун тиркагичлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

● Бугун Термизда Ўзбекистон Президенти Ислом Каримов совринн учун кураш бўйича халқаро мусобақа бошланади. Унга кўпгина чет эллик полвонлар таклиф этилган.

● Бугун Тошкентда Марказий Осиё давлатлари хор дирижёрларининг танлови бошланди.

ҲАМДЎСТЛИКДА

● Россия Олий Кенгаши Конституциявий судга Президент Борис Ельциннинг шу йил 5 февраль, 15 ва 20 мартда чиқарган фармонлари қонунийлигини текшириб кўришни топширди.

● Арман ҳарбий бўлинмалари Озарбайжоннинг Келбажар туманига кенг кўламли ҳужум бошладилар. Озарбайжон мудофаа вазирлиги матбуот хизмати маълумотларига кўра арман томони бу тумандаги 20 қишлоқ ва Лачи туманининг шимолий қисмини қўлга олган. Чегара яқинидаги бу жойда 60 минг аҳоли ҳаёти хавф остида қолганлиги сабабли уларни вертолётлар билан олиб чиқиб кетиш чоралари кўрилмоқда. Дастлабки 400 нафар аёллар, болалар ва қария кишилар олиб чиқиб кетилган.

● Грузия мудофаа вазирлиги Сухумига самолётлардан зарба берилганлиги ҳақида баёнот берди. Бунинг оқибатида беш киши ҳалок бўлганлиги маълум қилинди.

● Россия Бош вазири Виктор Черномирдин кеча Санкт-Петербургда бўлиб шаҳар иқтисодиёти, маданияти ва фани муаммолари билан батафсил танишди.

● Украина Олий Кенгашининг раёсати собиқ СССРнинг барча орден ва медаллари ҳақиқий эканлиги тўғрисида қарор қабул қилди. Ҳозир бу давлат ўзининг ягона — Украина Президентининг Фахрий белгиси нишонига эга.

● Кеча Москвада бўлиб ўтган банклараро валюта биржасида АҚШ 1 долларининг қиймати аввалги савдодагидан яна 8 рублга ортиб, 692 рублни ташкил этди.

ХОРИЖДА

● Ўзбекистон Президенти Ислом Каримов Буюк Британия элчиси сэр Б. Фоллни қабул қилиш чоғидаги келишувга ва Британия томони таклифига мувофиқ 24—26 март кунлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг Давлат маслаҳатчиси А. Азизхўжаев ва республика ташқи ишлар вазири С. Сафоевнинг Лондонга амалий ташрифи бўлиб ўтди. Унинг давомида икки томонлама алоқаларни ривожлантириш, халқаро хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлаш юзасидан Буюк Британиянинг сиёсий ва амалий доиралари билан фикр алмашинилди.

● Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Хавфсизлик Кенгаши халқаро ҳамжамиятнинг Боснияning ман этилган ҳаво зонасида самолётлар учишига йўл қўймаслик учун куч ишлатишга ижозат берадиган қарор қабул қилди. НАТО авиациясига бу ман этилган зонага кирган самолётларни уриб туширишга рухсат этилди.

● Исроил босиб олинган ҳудудларда жазо чораларини кучайтирмоқда. Армия вакили бу ҳудудларда аскарларга қуролланган фаластинликларга ўқ узишга рухсат берилганлигини айтди.

● Германия мудофаа вазири Рюэ вақти келиб НАТО ўз сафига Шарқий Европа мамлакатларини қабул қилишига ишончи комиллигини билдирди.

● Франциянинг янги Бош вазири Эдуар Баладюр зудлик билан ҳукумат сарф-харажатларини қисқартириш тўғрисида фармойиш чиқарди. Жумладан, у ўз маҳкамаси ходимларининг кўнгилочарлик учун сарф-харажатларини 20 фоизга қисқартирди.

● Парижга тўпланган қарз берувчи давлатлар вакиллари — Париж клуби қатнашчилари Россиянинг 17 миллиард қарзини тўлаш муддатларини чўзиш тўғрисида келишиб олдилар. Шунга қарамасдан бу йил Россия ташқи қарзлари ҳисобидан хорижий мамлакатларига 3,5 миллиард доллар тўлаши керак.

● Хитой яқин беш йил ичида ўз миллий ялпи маҳсулоти ҳажмини 1980 йилга нисбатан тўрт бараварга кўпайтиришни режалаяпти.

● АҚШ Президенти Билл Клинтон Канаданинг Ванкувер шаҳрида 3—4 апрель кунлари Борис Ельцин билан бўладиган учрашувда Россияга 1 миллиард доллар ҳисобида шошилинч ёрдам кўрсатишни таклиф этиш ниятида. Аммо бунинг учун Исроил билан Миср АҚШдан шу миқдорда олаётган ёрдамдан ўз хоҳишлари бўйича воз кечишлари керак бўлар экан.

* *Меҳнат жамоаларида*

Жаҳон бозоридаги рақобат

ТОШКЕНТ тўқимачилик комбинатида ишлаб чиқариш қувватларини қайта жиҳозлаш масаласига катта эътибор берилмоқда. Ҳаммага маълумки, яқинда Германиянинг «Бабкок текстилмашинен» фирмасининг пардозлаш машиналари билан жиҳозланган янги бўяш-пардозлаш фабрикаси фойдаланишга топширилган эди. Корхона маъмуриятидан хабар беришларича, бу борадаги эндиги вазифа — ғалтак ип ишлаб чиқариш бўйича Марказий Осиёда ягона ҳисобланган ип фабрикасининг энг янги жиҳозлар билан қайта жиҳозлашдир.

Суронли уруш йиллари Россиядан кўчириб келтирилган йигирув ип ускуналари ҳам моддий, ҳам маънавий жиҳатдан эскирди. Натижада ишлаб чиқариш самарадорлиги бир жойда тўхтаб қолди. Маҳсулот сифати ҳам ҳозирги кун талабларига жавоб бермай қўйди. Корхона бош директори Ботир Эргашевнинг шаҳодат беришича, яқинда ип фабрикасининг асбоб-ускуналари тўлалигича ўзгартирилади.

— Дастлабки ҳисоб-китобларга қараганда, — дейди у. — Америка Қўшма Штатларидан йигирув бўйича технологик занжирни, Германиядан ип тайёрлаш жиҳозларини сотиб олиш учун бизга оз эмас, кўп эмас — 40 миллион доллар керак бўлади. Комбинат раҳбарияти зарур валютани ўз имкониятларини ишга солган ҳолда ишлаб топиш йўлларини қидирмоқда. Масалан, Италия, Испания, Англия саноатчилари бирлашмадаги ишлаб чиқариш чиқиндиларини сотиб олиш истагини билдирдилар. Бундан ташқари тошкентликлар «Бабкок текстилмашинен» ускуналари ёрдамида ишлаб чиқариладиган кенг қамровли матолар Европа бозорларида ўз харидорини топишига умид қилмоқдалар.

Ундан кейин италияликлар билан биргаликда жинси матоси ишлаб чиқаришга ихтисослашган қўшма корхона тузиш масаласи ҳам кун тартибида турибди. Ана шу масалада ўртада вужудга келган муаммоларни ҳал этиш мақсадида бу йил бир неча бор хорижга бориб келдик.

Толиб НУРМУҲАМЕДОВ.

* *Ижтимоий ҳимоя—амалда*

ЎҚУВ МАСКАНЛАРИГА ЭЪТИБОР

ҲАМЗА тумани ҳокимлиги ҳамда халқ таълими бўлими мутасаддилари мавжуд ўқув муассасаларининг, ўқувчиларнинг ва муаллимларнинг эҳтиёжини ўйлаб кўплаб ибратли ишларни амалга оширишмоқда. Ҳозирги бозор иқтисодиёти шароитида бошқа соҳалар қатори мактабларни таъмирлаш борасидаги муаммо барчанинг фикри-ёдида. Бошланғич синф ўқувчиларини бепул овқат билан таъминлаш ҳам шулар жумласидандир.

— Ҳозир қайси соҳага, қайси ташкилот ёки муассасаларга мурожаат этманг, барчасининг ўзига хос ечимини кутаётган муаммолари мавжуд, — дейди туман халқ таълими бўлими мудири Ислом Зокиров. — Лекин у ёки бу ишни керакли ташкилот бажариб беради, деб қўл қовуштириб ўтириб бўлмайди. Шунинг учун ҳам туманимиз ҳокимлиги томонидан мавжуд ўқув муассасаларида таълим олаётган ўқувчиларга ва улар билим олаётган жойларга алоҳида эътибор берилиши уқтирилиб, шунга яраша анчагина маблағ ажратилди. Ўқув муассасаларини жорий таъмирлаш учун биринчи чорак ҳисобидан 2 миллион сўм, 1—5-синф ўқувчиларини бепул иссиқ нонушта билан таъминлаш мақсадида ҳам 2 миллион сўм маблағ ажратилди. Биргина 198-мактабнинг иситиш тармоғини жорий таъмирлаш ишлари учун эса 1 миллион 200 минг сўм пул берилди.

Бундан ташқари, 60 минг сўм маблағ Наврўз тантаналарини ўтказишда фаол иштирок этган ва қатнашган жамоаларга мукофот тарзида берилиши кўзда тутилмоқда. Бунинг учун эса учта ўрин таъсис этганмиз. Шуниси қувончлики, бу маблағларнинг барчаси туман ҳокимлигининг тадбиркорлиги асосида жамғарилган бўлиб, бюджетдан ташқари йиғилган даромаддан ажратилгандир. Туман ҳокимлигининг ўқув муассасалари, болаларга кўрсатган бу ғамхўрлигидан беҳад миннатдормиз. Чунки келажак авлод ҳар бир ўтиб бораётган кунидан кўнгли тўқ бўлса, у янада ўқишга, изланишга чанқоқ бўлади. Мана шунинг натижасидагина теран фикрли, зукко ёш авлод вояга етиб, улар мустақил Ўзбекистонимизнинг равнақи учун меҳнат қиладилар.

Гулзода АБДУЛЛАЕВА.

БУЮК ИПАК ЙЎЛИ МАДҲИ

ТАНИҚЛИ кинорежиссёр Э. Эшмуҳамедов ўзининг қизиқарли фильмлари билан томошабинлар ҳурматини қозониб келаётган серқирра санъаткорлардан бири. Бу изланувчан ижодкор тарихий мавзуда экран асарлари яратишга ҳам қўл урди.

Шу эзгу ният билан у яқинда Япония, Жанубий Корея ижодий сафарида бўлди. Унинг кўҳна ҳинд диёрида ижодий мулоқоти ҳам яхши самара берди.

Бундай хорижий сафарлар чоғида санъаткор Буюк ипак йўли билан боғлиқ тарихий маълумотларни тўплашга муваффақ бўлди. Зеро, суратга олинадиган янги экран асари қадимий карвон йўлига бағишланмоқда.

Анвар АЛИБОЕВ.

ОБОДОНЛАШТИРИШ ДАВОМ ЭТЯПТИ

ШАҲРИМИЗДА баҳорги ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш ҳамда тозалаш ойлиги тугади. Шунга қарамасдан кўп жойларда бу борадаги ишлар давом эттирилмоқда. Жумладан, Университет шаҳарчасида ҳам ойликда талайгина ишлар амалга оширилди. Олий ўқув юртлари атрофлари ва ётоқхоналар ҳудудидаги дарахтлар шохлари кесилиб, таналари оқланиб, тагларн юмшатилди, ерлар текисланди, ариқлар тозаланди, пиёдалар йўлкалари таъмирланиб, асфальт қилинди, суғориш шохобчаларининг ҳолати яхшиланди. Кўчалардаги барча савдо шохобчалари чиройли бўёқлар қилиниб баҳорий тус берилди. Барча махсус олий ва ўрта ўқув юртлари, ташкилотлар ўз ҳудудида мевали дарахтлар, айниқса, ёнғоқ, олма, гилос кўчатларини ўтказишга катта эътибор бердилар.

Масалан сўнгги 10 кун ичида Университет ва шифокорлар шаҳарчаларида 2500 га яқин мевали, 1500 та манзарали дарахт ва 3500 дан ортиқ гул кўчатлари экилди. Айни пайтда талабалар дарсдан бўш пайтларида ўз ташаббуслари билан шаҳарчада кўкаламзорлаштириш, ободонлаштириш ишларини авж олдиряптилар.

Шокир САФОЕВ.

ЙИРИК ЗИЁ МАСКАНИ

ЎЗБЕКИСТОН Қишлоқ хўжалик фанлари академияси кутубхонаси китоб фонди адабиётларга бой. Бу зиё масканида қишлоқ хўжалигига, илмий-сиёсий ва қисман бошқа соҳаларга доир ўзбек, рус ва хорижий тиллардаги 500 минг нусхадан зиёд китоб, журнал ва турли рисолалар мавжуд.

Кутубхона ишини яхши йўлга қўйиш мақсадида ҳар хил техникавий ускуна ва воситалар билан таъминланган. Бу ерда депозитар орқали ҳам китобларни сақлаш усулидан кенг фойдаланилмоқда. Китоб алмаштириш фонди ҳам режали иш олиб бормоқда.

Кутубхонада узлуксиз ишчи каталоги хизмати ҳам йўлга қўйилди. Янги олинган адабиётлар ўз вақтида таснифланилиб, уларга техникавий ишлов бериш ҳам китоб умрини узайтиришда муҳим восита бўлиб хизмат қилади.

Бу усул адабиётлардан китобхонлар мустақил равишда фойдаланишлари ва улар билан бемалол ишлашларида катта қулайликлар туғдирмоқда.

Зиё масканида тематик ахборотлар кунлари ҳам ўтказилмоқда. Бу тадбир доирасида нашриёт янгиликлари, академиянинг илмий тадқиқот институтларида юз бераётган ўзгаришлар, етакчи олимларнинг йирик тадқиқотлари тўғрисида маълумотлар бериб борилмоқда. Кутубхона эндиликда янги рўйхатга олинган адабиётлар рўйхатини юздан ортиқ ташкилотга юбориш имконига ҳам эга. Шунингдек кутубхоналараро обуна орқали китоб бериш борасида ҳам янги режалар белгиланди. Кейинги пайтда обуначиларга хабарномалар жўнатиш ҳам йўлга қўйилди.

Зиё маскани Хитойнинг қишлоқ хўжалиги, Финляндиянинг қишлоқ хўжалиги, чет элда фермер хўжалиги тажрибалари ҳақидаги адабиётларга ҳам эга. Эндиликда бу кабн маълумотномалар рўйхатини тузишга киришилди. Деҳқончилик саноат мажмуи, бозор иқтисодиётига ўтишнинг рўйхати ҳам тузилаётир.

Кутубхоналараро обуна орқали бериладиган китоблар бўйича тематик кўргазма очиш ҳам режалаштирилди.

Воҳид ВАЛИЕВ.

* *Тошкент шаҳар Ҳокими маҳкамасида*

ЯНГИ НОМЛАР

ТОШКЕНТ шаҳар Ҳокими А. И. Фозилбеков жамоат ташкилотлари, меҳнат жамоалари ва маҳаллалар аҳлининг илтимосларига биноан ҳамда Тошкент шаҳар Ҳокими маҳкамаси ҳузуридаги атамалар комиссияси таклифларини кўриб чиқиб Тошкент шаҳридаги айрим маданият масканлари ва кўчалар номларини ўзгартириш ҳақида қарор қабул қилди.

Тельман номли маданият ва истироҳат боғи «Боғи Эрам» маданият ва истироҳат боғи, Герман Лопатин кўчаси Наврўз кўчаси, Генерал Петров кўчаси Паркент кўчаси, Қурилиш 1-тор кўча Лутфий 1-тор кўчаси, Қурилиш 2-тор кўча Лутфий 2-тор кўчаси, Рокоссовский кўчаси Юқори Дарҳон кўчаси, Талалихин кўчаси Тирсакобод 4-тор кўчаси, Дальневосточная кўчаси Анҳара кўчаси, Фонвизин кўчаси Чиғил кўчаси, Фрунзе кўчаси Гулзор кўчаси, Ворошилов кўчаси Қўшқўрғон кўчаси, Ғафур Ғулом кўчаси Толариқ кўчаси, Заречная кўчаси Дарё бўйи кўчаси, Заречная 1-берк кўчаси Дарё бўйи 1-берк кўчаси, Заречная 2-берк кўчаси Дарё бўйи 2-берк кўчаси, Заречная 3-берк кўчаси Дарё бўйи 3-берк кўчаси, Заречная 4-берк кўчаси Дарё бўйи 4-берк кўчаси, Заречная 5-берк кўчаси Дарё бўйи 5-берк кўчаси, Заречная 6-берк кўчаси Дарё бўйи 6-берк кўчаси, Заречная 1-тор кўчаси Дарё бўйи 1-тор кўчаси, Заречная 2-тор кўчаси Дарё бўйи 2-тор кўчаси, Заречная 3-тор кўчаси Дарё бўйи 3-тор кўчаси, Заречная 4-тор кўчаси Дарё бўйи 4-тор кўчаси, Заречная 5-тор кўчаси Дарё бўйи 5-тор кўчаси, Заречная 6-тор кўчаси Дарё бўйи 6-тор кўчаси, Заречная 7-тор кўчаси Дарё бўйи 7-тор кўчаси, Смоленск кўчаси Чинор кўчаси, Янги тор кўча Саватчи 1-тор кўчаси, Москвоск кўчаси Кўрғонтепа кўчаси, деб ўзгартирилди.

Тегишли бошқарма ва туман ҳокимликларига мазкур қарор бўйича бир ой муддат ичида зарур ўзгартиришларни амалга ошириш, янги кўрсаткичлар ўрнатиш, бу ўзгаришлар ҳақида ички ишлар, соғлиқни сақлаш, ижтимоий таъминот ва алоқа идораларини хабардор этиш топширилди.

* *Спорт*

ЕТТИ БИРОДАРНИНГ ҒАЛАБАСИ

ЮРТИМИЗДА Наврўз айёми қизғин нишонланаётган куни Қирғизистон пойтахти Бишкекда ўтаётган бокс бўйича халқаро турнир ўз маррасига етиб келди. Унда Қозоғистон, Тожикистон, Россия, Ўзбекистон ва мезбонларнинг 84 спортчиси иштирок этди.

Ўзбекистон шарафини ҳимоя қилган ўн нафар спортчимиз ўзларига билдирилган ишончни оқлаб асосий вазн тоифаларида совринли ўринларни эгаллаб уйларига уч олтин, бир кумуш ва уч бронза медали билан қайтдилар.

Бундан ташқари 54 килограмм вазндаги боксчилар ўртасида қатор номдор рақибларини енгиб биринчи ўринни эгаллаган Уйғун Сиддиқов «Ғалабага бўлган иродаси учун», Қирғизистон ва қозоғистонлик уч рақибини катта устунлик билан мағлубиятга учратиб бош совринни қўлга киритган 67 килограммгача бўлган вазн тоифасидаги вакилимиз Наримон Отаев «Турнирнинг энг яхши боксчиси» совринн билан ҳам тақдирландилар.

* *«02» хабар беради*

ЖИНОЯТ ЖАЗОСИЗ ҚОЛМАЙДИ

22 мартдан 28 мартгача бўлган кунлар мобайнида Тошкент шаҳрида 292 марта жиноятқорона тажовузлар бўлганлиги Ички ишлар идоралари томонидан қайд этилди. Уларнинг 223 таси эса «иссиғида» фош қилинди.

● 23 март кундузи Юнусобод тумани ички ишлар бошқармаси ходимлари томонидан квартира олиб бериш баҳонасида танишидан 335 минг сўм пулини олиб жуфтакни ростлаган 1950 йилда туғилган ҳеч қаерда ишламайдиган аёл киши ушланди.

● Худди шу куни кундузи Т. Зоҳидов кўчасидаги мева-сабзавот дўкончаси атрофида муқаддам судланган 1967 йили туғилган кимса, ўзининг шериги билан жисмоний жиҳатдан зўравонлик қилиш билан Ўрта Осиё кабеллар ишлаб чиқариш бирлашмасининг тиббиёт ҳамширасини қўрқитиб пулини олишга уринган, сўнг эса унинг ВАЗ—2109 машинасининг олд ойнасини синдириб, қочиб кетишган. Юнусобод тумани ИИБ милиция ходимларининг зудлик билан кўрган тадбирлари туфайли юқоридаги «зўравон»лар ушланган, ҳозир жиноий иш очилиб, тергов ишлари кетмоқда.

● 25 март тунда номаълум кимсалар К. Ерматов кўчасида жойлашган «Ватан» Ўзбекистон — Афғонистон қўшма корхонасининг темир панжараларини бузиш йўли билан ичкарига кирганлар ва ундан умумий миқдори 2 миллион сўмлик сигареталар ва 42 минг сўм пулни ўғирлаб кетишган. Чилонзор район ИИБ тартиб посбонлари вақтни бой беришмади. Тез орада ушбу ўғирликни амалга оширган уч жиноятчи, «Ватан» қўшма корхонасининг 1970 йилда туғилган тикувчи устаси ва 1973 йилда туғилган икки нафар олий ўқув юрти талабаси ушланди.

● 26 март куни пойтахт Ички ишлар бош бошқармасининг жиноят қидирув хизмати ходимлари Яккасарой туманида ўтказаётган махсус тадбир пайтида «Главукрздрав» автобазасининг ҳайдовчиси Саломатин кўчасида жойлашган ўз уйида 2 килограмм 875 грамм марихуана гиёвандлик моддаси билан ушланди. Модда мусодара этилди.

● Шу куни «Зенит» меҳмонхонасининг хоналаридан бирида «Строитель» кичик корхонасининг ишчиси 17-шаҳар клиник касалхонаси тиббиёт ҳамширасининг номусига тажовуз қилган. Мазкур ҳол юзасидан жиноий иш очилган. Ҳозир тергов ҳаракатлари кетмоқда.

● 27 март кундузи муниципал милиция ходимлари томонидан «Чорсу» деҳқон бозорида Тошкент вилоятида истиқомат қилувчи кишининг чўнтагидан 5 минг сўм пулини ўғирлаган 4-қурилиш-таъмирлаш бошқармасининг ишчиси ушланди.

● 27 март куни тунда икки номаълум кимса Фарғона йўли кўчасидаги хонадонларнинг бирида истиқомат қилувчи ногирон кишининг уйига бостириб кириб, уни роса дўппослаганлар. Сўнг эса хонадон соҳибининг гилами, биллур идишлари ва сариқ металлдан тайёрланган буюмларини олиб бир пасда кўздан ғойиб бўлганлар. Ҳамза тумани ИИБ ходимлари зудлик билан босқинчиларни қўлга олиш тадбирларини ишлаб чиқдилар. Натижада мазкур жиноятни амалга оширишда айбланиб илгари судланган, 1966 йилда туғилган ресторанда официант бўлиб ишловчи аёл ашёвий далиллар билан қўлга олинди. Унинг шерикларини ушлаш тадбирлари кўрилди.

● Ўтган якшанба куни Тошкент отчопаридаги кийим-кечак бозорида чайқовчиликда шубҳа билан 14 киши ушланди, умумий қиймати 90,180 минг сўмлик маҳсулот ва қимматбаҳо буюмлар мусодара этилди.

Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармасининг матбуот шўъбаси.

ТОШКЕНТ—ҚОМУС

ТОШКЕНТНИНГ 2000 йиллиги муносабати билан 1983 йилда шаҳар ҳақида рус тилида энциклопедия — қомус нашр этилган эди.

Мана орадан ўн йил ўтиб, куни кеча шаҳримиз ҳақида ўзбек тилида «Тошкент» қомуси нашр этилди. Ҳар икки нашрнинг ношири битта — Қомуслар Бош таҳририяти (илгари Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси деб аталарди). Лекин моҳият эътибори билан ўзбек тилидаги «Тошкент»нинг йўналиши, мундарижаси бутунлай ўзгача, рус нашридагидан тубдан фарқ қилади. Чунки уларнинг ҳар иккиси ўз даврининг маҳсули.

«Тошкент»нинг русча нашрини варақлар экансиз, ўзбекча номдаги мақолалардан кўра кўпроқ русча номдаги мақолалар устиворлигини кўрасиз. Чунки амалиётда, шаҳар ҳаётида ўзи шундай эди: кўчаларимиз, ташкилотларимиз кўпроқ русча номланарди. Бугина эмас, тарихдаги бор ҳақиқатни тасвирлаб, миллий қадриятларни кўпроқ ёритсангиз, «ўтмишни қўмсаш» (ностальгия) тавқи лаънатини кўйишарди...

Янги нашр этилган «Тошкент» қомусини кўздан кечирар экансиз, ишончимиз комилки, мақолаларда мустақиллик шарофати барқ уриб турганлигидан таскин топасиз.

Йўқ, биз янги «Тошкент»да мустақиллик билан боғлиқ ҳамма ўзгаришлар, шаҳар ҳақидаги жамики маълумот, барча тарих кирди, дея олмаймиз. Чунки пойтахтимиз тарихида ҳали кўп ўрганилмаган, илмий хулосаланмаган масалалар бор. Мисол учун, шаҳардаги жой номлари этимологиясини олайлик. Кўпчилиги шунчаки ривоят ёки мунозарали фикрлардан иборат. Энциклопедияларда эса мунозаралар берилмайди. Шундай бўлса-да ушбу нашрда айрим жой номлари этимологиясини ишончли манбалар асосида келтиришга, умуман мақолаларни имконият даражасида холислик билан шарқона тарзда ёритишга ҳаракат қилинди.

Китоб унчалик катта ҳажмга эга бўлмаган — бор-йўғи 9 саҳифалик «Тарихий очерк» билан бошланади. Умуман қомусни қандайдир бир бино, иншоот деб фараз қилсак, ушбу очерк унинг бир синчли қурилмасидир. Ундаги муҳим тарихий воқеалар китобдаги тегишли мақолаларга ҳавола этилиб, қандайдир бир яхлитликни ташкил этади. Унда Тошкентнинг 2000 йиллик тарихи то ҳозирги кунга қадар қисқа, лўнда, аниқ маълумотлар билан ҳикоя қилинади. Шаҳримиз ёшига шу кунга қадар айрим тадқиқотчилар ўртасида шубҳа билан қараш ҳолати бор эди. Тарихий очеркда ва уни тўлдирувчи бошқа мақолаларда шаҳарнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти шундай ишончли археологик топилмалар, ёзма ва бошқа манбалар билан берилганки, уни ўқиган кишида мана шундай шубҳага ўрин қолмайди.

Мақолани ўқир экансиз, Тошкент жуда кескин зиддиятларни бошидан кечирганлигини, у гоҳ сўниб, гоҳ юксалганлигини кўрасиз. Тошкентни Россия империяси босиб олгандан сўнг, шаҳар чинакам мустамлакачилик сиёсати остида қолди. Шўролар даврида шаҳар, илгари ёзиб келингандек, фақат гуллаб-яшнамади. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги ўзгаришлар, зиддиятлар, албатта унинг пойтахти ҳаётию — қиёфасига ўз таъсирини кўрсатдики, буларнинг энг муҳимлари тарихий очеркда қайд этиб ўтилган. Гражданлар уруши, иккинчи жаҳон уруши даврларидаги шаҳар ҳаёти китобда алоҳида мақола қилиб берилмаганлиги учун, бу ўринда кўпроқ тўхтаб ўтилди.

Мустақиллик арафасида шаҳар қиёфаси ва ҳаёти тасвирланар экан, «азим шаҳримиз Тошкентнинг шон-шуҳрати қанчалик юксак бўлмасин, унинг сўнгги йиллардаги мавқеи, ривожланиш суръатлари умуман йирик шаҳарлар даражасидан орқада қолмоқда», деб хулосаланади ва бу қолоқликнинг энг асосийлари санаб ўтилади.

1991 йил 31 августда Тошкентда Ўзбекистон мустақиллиги эълон қилингач, истиқлол шарофатидан келиб чиқиб шаҳарда ҳам сиёсий-иқтисодий, ҳам маънавият соҳаларида олиб борилаётган туб ислоҳотлар билан тарихий очерк якунланади.

Китобнинг асосий қисмидаги мақолалар алифбо тартибида берилган. Улар шаҳар тарихи ва ҳозирги ҳаётининг турли томонларини ўзида акс эттиради. Китобни варақлар экансиз, Тошкент тарихи ҳақидаги муҳим воқеалар, шаҳарнинг илмий, маданий ва иқтисодий ҳаётига оид маълумотлар, аҳолиси, табиати, маъмурий районлари, тарихий ёдгорликлари, меъморлик обидалари, даҳа, маҳалла, турар жой мавзелари, йирик корхоналари, савдо муассасалари, ўрта ва олий ўқув юртлари, илмий тадқиқот институтлари, маданият ва санъат даргоҳлари, матбуоти, ижодий уюшмалари, йирик ва тарихий кўчалари, майдон ва хиёбонлари, метрополитени, шаҳарнинг бошқа шаҳарлар билан маданий ва иқтисодий алоқалари, биродарлашган шаҳарлари ва бошқалар ҳақидаги мақолаларни ўқийсиз.

Мақолаларни танлашда ва ёритишда таҳририят энциклопедия маданияти, қонун-қоидаларига амал қилишга ҳаракат қилган. Ҳар бир мавзу бошидан охиригача, яъни пайдо бўлиш тарихидан ҳозирги кунигача ёритилади. Бунда муҳим маълумотлар, саналар, белгилар, фазилатлар ажратиб олиниб, лўндаликка амал қилинади. Китобдан ўрин олган йирик мақолалардан «Архитектура ва шаҳарсозлик» мақоласини олайлик. Унда дастлаб шаҳарнинг пайдо бўлиш давридаги иншоотлари, сўнг босқичма-босқич кейинги даврлари ўзига хос меъморий ёдгорликлари бирма-бир тасвирланади ва охирида шаҳарнинг ҳозирги қиёфаси, архитектураси, унинг яратувчилари, ижодкорлари берилади. «Аҳолиси», «Табиати», «Соғлиқни сақлаш», «Кино», «Театр», «Музика», «Трамвай», «Троллейбус», «Автобус», «Шаҳарни ёритиш», «Кўкаламзорлаштириш» — хуллас, шаҳар ҳаётининг ҳамма қон томирлари ва томирчалари — шу тарздаги услуб билан изчилликка ва тарихийликка риоя қилинган ҳолда ёритилади.

Китобдаги тарихий воқеаларга бағишланган мақолаларни қайд этиш лозим бўлганда, «Тошкентнинг Қўқон хонлигига қўшиб олиниши», «Тошкентнинг босиб олиниши (1865)» мақолаларини тилга олиш керак. Айтиш мумкинки, бу ердаги маълумотлар, энциклопедик услубда, аниқлик билан биринчи бор берилаётганлиги учун улар батафсилроқ ёритилди.

Мавзе, маҳалла, даҳалар ҳақидаги мақолалар ҳам тарихий маълумотлар билан бойитиб ёзилди. Тошкентдаги 4 даҳага бағишланган мақолаларда — «Шайхонтоҳур», «Кўкча», «Бешёғоч», «Себзор»да шу даҳаларда жойлашган маҳаллалар санаб ўтилди. «Мавзе», «Маҳалла» мақоласида 20-аср бошларида шаҳардаги қайси мавзе ёки маҳалла қаерда жойлашганлиги кўрсатилган карта-схема берилдики, бу тарихий жой номларини тиклашда муҳим манба бўлиб хизмат қилади, деб ўйлаймиз.

Қомусда фаолиятлари Тошкент тарихи ва тақдири билан боғлиқ бўлган ҳамда номлари шаҳар кўчалари ва майдонларида, ёдгорликлар ва мемориал лавҳаларда абадийлаштирилган тарихий шахслар ҳақида алоҳида мақолалар берилди. Булар орасида «Беруний», «Ибн Сино», «Форобий», «Юнусхўжа», «Юнусхон», «Темур», «Хўжа Аҳрор», «Бобур», «Улуғбек», «Ҳофиз Кўҳакий», «Восифий», «Муҳаммад Солиҳ», «Мунавварқори» ва бошқалар бор. Бу мақолалар китоблардан китобларга ўтган биографик маълумотлар билан эмас, айни вақтда Тошкент билан боғлаб берилган.

Китобда В. И. Ленин ҳақида ҳам алоҳида мақолани ўқийсиз. Лекин у илгариги нашрдагидек жуда катта ҳажмда эмас, балки бевосита Тошкент ҳаёти билан боғлиқ ҳолда ўртача ҳажмда берилган. У билан танишсангиз В. И. Ленин Россия империясининг ўлкадаги ҳукмронлигини сақлаб қолиш учун Тошкентга ниҳоятда эътибор берганлигини, Ленин номи, бошқа жойларда бўлгани каби, Тошкентда ҳам сунъий равишда илоҳийлаштириб келинганлигини билиб оласиз.

Биографик мақолалар ҳақида гап кетганда, қомусий нашрларнинг жанр сифатидаги бир ўзига хос хусусиятларини таъкидлашни лозим кўрамиз, у ҳам бўлса мавжуд фактни «қайд этувчилик»дир. Қомусда тарихда ижобий роль ўйнаган шахслар билан бир қаторда салбий шахслар ҳам берилиши мумкин. Албатта, бунда тарихийлик, илмийлик ва холисликка риоя этилади. Шу боисдан ҳам «Тошкент» қомусида «Верешчагин В. В.», «Черняев М. Г.», «Фрунзе М. В.», «Куйбишев В. В.»лар ҳақида ҳам алоҳида мақола берилган.

Хўш, Тошкентда кейинги йилларда машҳури-маълум бўлган, шу ерда яшаб фаоллик кўрсатган ёки кўрсатаётган шахслардан кимлар китобга киритилган?

Бу ўринда ҳам қомусий нашрлар таҳририятларида қабул қилинган тартиботга риоя этилди: таҳрир ҳайъатида мезон ишлаб чиқилиб, ўшанга амал қилинди. Масалан, «Тошкент» қомусига олимлардан — Ўзбекистон Фанлар академияси академиклари; ёзувчилардан — Ўзбекистон халқ ёзувчилари; артистлардан — халқ артисти ва давлат мукофоти совриндорлари ва шу тартиботда бошқа соҳа кишилари ҳақида мақолалар берилди. Албатта, бу мезон нисбий. Кейинги нашрларда у такомиллашиб боради деган умиддамиз.

Китоб сўнггида Тошкент ҳаёти билан боғлиқ муҳим воқеалар йилномаси — хронологияси ва Тошкент ҳақидаги адабиётлар (асосан китоблар) рўйхати берилди. Китобдан 300 дан зиёд рангли суратлар, карта-схемалар ўрин олган.

Китобни тайёрлашда 200 дан зиёд муаллиф иштирок этди. Булар тегишли соҳаларнинг етакчи олим ва мутахассислари, шаҳар ҳокимиятининг масъул ходимларидир. Китобда тарихий материалларни тайёрлашда, айниқса Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг мухбир аъзоси, тарих фанлари доктори Абдулаҳад Муҳаммаджонов жонбозлик кўрсатди. Имкониятдан фойдаланиб «Тошкент» қомуси таҳрир ҳайъати аъзоси бўлган ушбу олимга, шунингдек мураккаб ва мунозарали мақолаларни тайёрлашда иштирок этган муаллифлардан академиклар — С. Зиёдуллаев, К. А. Зуфаров, А. Асқаровга; тарих фанлари докторлари — Ҳ. Зияев, Б. Лунин, Ҳ. Бобобеков, Ғ. Рашидовга; иқтисод фанлари докторлари — Ҳ. Собиров, И. Р. Муллажоновга; Тошкент археологик экспедициясининг раҳбари, тарих фанлари номзоди М. Филановичга; санъатшунослик доктори Т. Ғафурбековга; меъмор, фан номзоди Х. Пўлатовга миннатдорчилик билдирамиз.

Мақола сўнггида, «Тошкент» қомуси билан танишаётган ўқувчилардан унинг даврийлигига эътибор беришларини сўраб қоламиз. Чунки жумҳуриятимизда мустақиллик муносабати билан Тошкент шаҳри ижтимоий-сиёсий, маданий, хўжалик ва бошқа жабҳаларида катта ўзгаришлар содир бўлмоқда. Мавзелар, майдонлар, кўчалар, ташкилотлар ва ҳоказолар номлари ўзгариб, тарихий номлари тикланмоқда. Ўзбек тили жумҳуриятнинг давлат тили деб эълон қилиниши муносабати билан атамаларда жиддий ўзгаришлар рўй бермоқда. Китоб мана шу шиддатли ва хайрли воқеаларнинг қарийб 1993 йилга қадар ҳолатини акс эттирди. Маълум бир жойнинг номи ўзгариб қомусда унинг эски номи кириб қолган экан, бу билан умуман китобни «эски»га чиқармаслик керак. Қомус ҳеч бир эскимайди, уни ўз даврининг маҳсули сифатида баҳолаб, шаҳар ҳақида бир манба сифатида фойдаланиш лозим.

«Тошкент оқшоми»нинг бугунги қўш дам олиш саҳифасида азиз оқшомхонларни қомусдаги баъзи мақолалар билан таништирамиз.

Нурислом ТЎҚЛИЕВ,
Муроджон АМИНОВ.

● АЛИХОНТЎРА Шокирхонтўра ўғли (тахаллуси Соғуний (1885—1976), дин ва давлат арбоби саркарда, уламо, тарихнавис, таржимон, шоир, табиб. Туркистон ўлкасининг Тўқмоқ шаҳрида туғилган. Муҳожирликда бўлган (1917—18; 1930—46). Шарқий Туркистон (Уйғуристон)да миллий озодлик ҳаракатининг (1944—49) йўлбошчиларидан. Бир неча бор ҳаж қилган. Макка ва Мадинадаги ислом фалсафасининг йирик марказларида ва Бухорода таҳсил олиб, тафсир, ҳадис, фиқҳ ва дунёвий илмларни чуқур ўрганган, араб, форс ва туркий тилларни мукаммал билган. Шарқий Туркистонда Хитой маъмурлари томонидан 1937 йилда ҳибсга олиниб, 1941 йилда озод қилинди. 1944 йил 12 ноябрда Шарқий Туркистон жумҳурияти эълон қилиниб, Алихонтўра Муваққат инқилобий ҳукумат раислигига сайланади. 1945 йил 8 апрелда тузилган миллий армиянинг ташаббускори бўлди ва армияга қўмондон этиб тайинланади. Шарқий Туркистон ҳукуматининг қарорига биноан Алихонтўрага маршал унвони берилди. 1946 йил июнда шўро айғоқчилари томонидан махфий равишда тазйиқ билан Ғулжадан олиб чиқиб кетилган. Алихонтўра ўша йилдан умрининг охиригача Тошкентда яшади. Дастлабки уч йил давомида уй назоратида бўлган. Тошкентда илмий ижод ва таржимонлик билан шуғулланади. Аҳмад Донишнинг «Наводир ул-вақоеъ», Херман Вамберининг «Мовароуннаҳр ёки Бухоро тарихи», Дарвиш Али Чангийнинг «Мусиқа рисоласи», шунингдек «Темур тузуклари» каби асарларни ўзбек тилига таржима қилган. «Девони Соғуний» шеърий тўплами, «Тарихи Муҳаммадий» («Муҳаммад тарихи»), «Шифо ул-илал» («Хасталиклар давоси») асарлари бор. Норасмий диний мактаблар ташкил қилиб, диний илмлар соҳасида кўплаб шогирдлар етиштирган. Тошкентдаги тарихий меъморлик обидалари ва қадимги қўлёзмаларни сақлаб қолишда жонкуярлик қилган. Шайх Зайниддинбобо қабристонига дафн қилинган (Разияллоҳу анҳу).

● БАДРИ ЧОЧИЙ (асл исми Бадриддин (1285—1344), ўзбек шоири, Тошкентда туғилган. 1332 йилдан Деҳлида яшаб, Султон Муҳаммадшоҳ Туғлиқ саройида хизмат қилган. Асосан форс тилида ижод этган, кўпроқ қасидалар ёзган. «Қиш қасидаси» («Қасидаи шитоия»), «Ёз қасидаси» («Қасидаи сайфия»), «Баҳор қасидаси» («Қасидаи раббия») асарларида табиат, фасллар гўзаллиги тараннум этилади, инсонни улуғлайди. Манбаларда Бадри Чочийнинг девони ва «Шоҳнома»си борлиги қайд этилган. Замондошлари унга «Фахр уз-замон» («Замон фахри») унвонини беришган. Бадри Чочий қасидалари тўпламнинг 2 нусхаси Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида (инв. № 1051, № 151) сақланмоқда.

● БАРОҚХОН (ҳақиқий исми Наврўз Аҳмадхон) (?—1556), Шайбонийлар сулоласидан бўлган хон, Абулхайрхоннинг невараси, Тошкент хони Суюнчхўжанинг кичик ўғли. Отасининг вафотидан кейин Тошкент (1525—51), сўнгра Мовароуннаҳр (1551—56) хони. Бароқхон ёшлигида Восифийдан шеърият, мусиқа, ашула, вазн ва назмдан таълим олган. Айни вақтда чавандозлик ва ҳарбий машқлар билан кўпроқ машғул бўлган. Бароқхон ўз салтанатини кенгайтириш учун кўп ҳарбий юришлар уюштирган. Абдуллатифхон вафотидан сўнг (1551) Самарқанд тахтига ўтирган ва Наврўз Аҳмадхон номи билан Мовароуннаҳрни бошқарган. Унинг номи билан танга пуллар зарб этилган. Бароқхон ободончилик ишларига эътибор берган, мадрасалар қурдирган. Ҳофиз Таниш Бухорийнинг «Абдулланома» асарида қайд этилишича, Бароқхон 1556 йили Зарафшон дарёсидан бошланган Дарғом каналининг бош иншооти Работхўжа тўғонини тузаттириш учун келган ва шу ерда тўсатдан вафот этган (Самарқанд шаҳрига дафн этилган). Бароқхон даврида Мовароуннаҳр билан Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари, Ҳиндистон, Хитой, Сибирь ўртасида савдо-сотиқ, элчилик муносабатлари ривожланган.

● БЕШЁҒОЧ, даҳа. Қўлёзма асарларда Зангиота даҳаси деб ҳам аталиб келган. Тошкентнинг жанубий қисмида, ҳозирги Шайхонтоҳур райони территориясида. Кўкча, Себзор, Шайхонтоҳур даҳалари билан туташ бўлган.

Чегараси шимоли-ғарбдан Қуйи Бўзсув бўйлаб (ҳозирги Уйғур ва Самарқанд дарвоза кўчалари оралиғидан), шарқ тарафидан Бешёғоч-Ҳадра йўналиши бўйлаб (ҳозирги Фурқат кўчасидан) ўтган.

Даҳанинг жанубий тарафида бешёғочликларнинг боғлари ва деҳқончилик ерлари (мавзелари) жойлашган эди. Бешёғоч замини нотекис бўлган. Ундан Чуқуркўприк ва Захариқларнинг жарликлари ўтган. Машҳур меъморчилик иншооти — Абулқосим шайх мадрасаси. 19-аср ўрталарида Бешёғочда уч дарвоза (Самарқанд, Камолон, Бешёғоч), 75 масжид, 3 мадраса, кўплаб хумдонлар бор эди. «Туркистон ўлкаси йилномаси»нинг 1876 йилги маълумотига кўра Бешёғочда 1400 хонадон (12450 киши) бўлган. Даҳа катта боғлари, мис буюмлари билан машҳур бўлган. Бешёғочнинг шаҳар дарвозасидан ташқарида (бир фарсах нарида) Зангиота (Чўпонота) мозори бўларди. Шу атрофда ҳар йили қовун сайли ўтказилар эди (19-аср ўрталари).

⊙ Мустақил Ўзбекистон Республикасининг гўзал пойтахти — Тошкент шаҳрининг бугунги жамоли.



⊙ Тошкентнинг 1865 йилги (чапда) ва 1992 йилги (ўнгда) карта-схемалари.

Бешёғоч даҳасида 75 та маҳалла бўлган.

● БОЗОРЛАР, Тошкентда бозорлар қадимдан шаҳарнинг таркибий қисми ҳисобланиб, аҳамияти ниҳоятда катта бўлган. Бозорлар савдо-сотиқ жойигина бўлиб қолмай, балки ҳунармандлик ва жамоат марказлари вазифаларини ҳам ўтаган. Бозорлар атрофида устахоналар, ҳунарманд-косиблар яшайдиган маҳаллалар жойлашган. Чорсу (ҳозирги Эскижўва) бозори энг катта бозор бўлган. У шаҳарнинг геометрик марказида, Тошкентнинг 4 даҳаси туташган ерда жойлашган. Илмий манбаларда 19-аср бошларида бу бозорда қарийб 3000 та дўкон, бозор ёнида эса 16 та карвонсарой, омборхоналар бўлганлиги қайд этилган.

Бозорларда рўзғор учун зарур бўлган барча буюмлар, заргарлик буюмлари ҳамда озиқ-овқат, мевалар ва ҳоказолар билан савдо қилинган. Тошкентда Шарқдаги бошқа шаҳарларда бўлгани каби тунги бозор (бозоршаб) бўлар эди.

Турли моллар сотилган Чорсу бозоридан ташқари Тошкентда 19-аср охири — 20-аср бошида яна 4 махсус бозор бўлган. Иккитаси — отбозор ва қўйбозор (молбозор деб ҳам аталган) шаҳарнинг шимолий қисмида — Ҳастимом мавзесида, Қовунбозор Самарқанд дарвозаси мавзесида жойлашган. Ўрда (Шайхонтоҳур даҳаси) да ҳам бозор бўлиб, унга карвонлар Қашқар дарвозасидан келарди. Шаҳарнинг машҳур қаймоқ бозори ҳам шу ерда эди. Ўрда бозори мавқеи жиҳатидан Чорсу бозоридан кейин турган. Бундан ташқари, ҳар маҳалланинг ўз бозорчаси (гузари) ҳам бўларди. Уларда кундалик рўзғор учун керакли нарсалар сотилган, сартарошхона бўлган.

20-асрнинг 30-йилларида аввалги бозорлар реконструкция қилиниб, колхоз ва кооперативлар бозорига айлантирилди. 80-йиллар охиридан улар деҳқон бозори номини олди.

Ҳозир Тошкентда 14 катта бозор ва уларнинг 42 филиали бор. Умумий майдони 32,2 га.

● БЎРИЖАР (Бўржар), канал, Бўзсувнинг чап тармоғи Оқтепа ГЭС юқорисидан бошланади. Узунлиги 5,4 км. Сув сарфи 33 $м^3$/сек. Чилонзор ва Яккасарой районлари территориясидан оқади. Герман Лопатин, Бобур, Муқимий, Волгоград, Фарҳод, Дўмбиробод кўч. ҳамда Катта Ўзбекистон тракти, Тошкент — Самарқанд темир йўлини кесиб ўтиб, Салор каналига қуйилади. Каналнинг ўзани чуқур бўлиб, қирғоқлари тик. Баъзи жойларида қирғоқ ён бағриларининг баландлиги 20 — 25 м га етади, қуйи оқимига борган сари пасайиб, 8—10 м га тушиб қолади. Каналда 5 кўприк бор.

● ДАРХОН (айрим олимлар фикрича, мўғулча «дархон» — мажбуриятлардан тўла озод қилинган демакдир), Шайхонтоҳур даҳасидаги маҳалла. Пуштибоғ, Орқакўча, Оқмасжид маҳаллалари билан чегарадош ва жанубдан Тошкўча ёки Шайхонтоҳур кўчаси (ҳозирги Навоий проспекти)га туташган. Дархонда 120 хонадон бўлган. Аҳолиси асосан ўзбеклар бўлиб, ҳунармандчилик, деҳқончилик (шаҳар ташқарисидаги далаларида), савдо-сотиқ билан шуғулланган. Масжид, чойхона, бир неча дўкон, устахоналар бўлган (20-аср бошлари). Почча ариғидан сув ичган. Ҳозирги территориясида маъмурий ва турар жой бинолари жойлашган.

● ДАҲА 18-аср охири — 20-аср бошларида шаҳарнинг маъмурий-территориал бирлиги. Тошкент 4 даҳага бўлинган. Улар халқ орасида Бешёғоч, Кўкча, Себзор, Шайхонтоҳур деб аталган. Тарихий асарларда, жумладан Муҳаммад Солиҳнинг «Тошкентнинг янги тарихи» асарида даҳалар номи қуйидагича: Зангиота (Бешёғоч), Шайх Зайниддин (Кўкча), Ҳазрат Имом Қаффол Шоший (Себзор), Шайх Хованди Тоҳур. Даҳалар сиёсий жиҳатдан бирлаштирилганга қадар ҳар бир даҳани мустақил ҳоким бошқарган. Тошкент тарихида бу давр (12—18-асрлар) чор (тўрт) ҳокимлик даври деб аталган. Ҳар бир даҳа чегараси катта (умумий) бозор — Чорсудан бошланган. Даҳалардаги гузар ва маҳаллалардан ташқари шу маъмурий бирликлар доирасига киритилган чекка ерларда мавзелар ҳам бўлган. 1784 йили Шайхонтоҳур даҳасининг ҳокими Юнусхўжа қолган уч даҳа ҳокимлигини ҳам ўз тасарруфига олиб, Тошкентда феодал тарқоқликка чек қўйган. Даҳалар ва атроф вилоятлар бирлаштирилиб ягона Тошкент давлати тузилгандан кейин ҳам у тўрт маъмурий бирлик номлари сифатида истеъмолда сақланиб келган. 19-аср 70-йилларида Тошкентда 154 маҳалла ва гузар, 175 га яқин мавзе бор эди. Даҳа аҳолисининг аксарияти ҳунармандчилик, савдо-сотиқ ва деҳқончилик билан шуғулланган. Даҳада бир неча мадраса, бозор, масжид ва карвонсаройлар бўлган. Тошкент Россия томонидан босиб олингандан сўнг (1865) ундаги даҳаларда 13260 хонадон, 8 мадраса, 8 ҳаммом, 255 масжид, 116 тегирмон ва обжувоз бўлиб, 76 минг аҳоли яшаган.

● ЖАНГГОҲ, ЖАНГОБ, Шайхонтоҳур даҳасидаги маҳалла. Эскижўва, Ғиштмасжид, Ҳадра, Чуқурқишлоқ маҳаллалари билан чегарадош бўлган ва Шайхонтоҳур кўчасига туташган. Жанггоҳда 60 дан ортиқ хонадон яшаган. Аҳолиси 400 га яқин киши; асосан ўзбеклар бўлиб, ҳунармандчилик, майда савдо билан шуғулланган. Масжид, чойхона, дўкон бўлган (20-аср бошлари). Чор ҳокимлик даврида Тошкентнинг тўрт даҳаси ўртасида пайдо бўладиган низолар жангга айланиб, кўпинча, жанглар ҳоз. А. Қодирий номидаги маданият ва истироҳат боғи ўрнида ва собиқ «Спартак» стадиони (ҳозир «Келес» автостанцияси) ёнида, Лабзак сувининг икки соҳилида бўлган (Жанггоҳ маҳалласининг номи шундан). Жанггоҳ ўрнида ҳозир маданият ва истироҳат боғи, Жанггоҳ микрорайонининг бир қисми жойлашган.

● ЖОМЕ МАСЖИД (Уйғур кўчаси, Ҳақиқат проезди, 22), архитектура ёдгорлиги (15 — 19-асрлар). Жоме масжидини 1451 да Хўжа Аҳрор қурдирган. Чорсуда шаклланган Регистон ансамбли таркибига кирган. Масжид Хўжа Аҳрор мадрасаси (1954 йил бу мадраса бузилиб, ғишти масжидни таъмирлаш учун ишлатилган) билан бирга ансамбль асосини ташкил этган. Унда жума ва ҳайит намозлари, хутбалар ўқилган, диний маърузалар тингланган (номи шундан). Тўғри тўртбурчак тархли масжид анча чўзинчоқ (98Х36,5 м). Ҳовлисига (66,1Х23,36 м) шарқ томонидаги безаксиз дарвозадан кирилган. Ҳовлининг икки ёни бир қаватли, олд томони равоқсимон айвонлардан иборат. 18-асрда ҳовли атрофидаги айвонлар бузилиб кетган, кейин ҳужраларга айлантирилиб, қайта тикланган; 1886 — 88 йилларда асосий бино (хонақоҳ) ҳам қайта тикланди. Хонақоҳ деярли куб тархли 16,2Х16,2Х15 н), думалоқ гумбазли, гардишида 4 табадон (ёруғлик тушадиган туйнук) бор, безаксиз. Шарқий деворига равоқ ишланган. Хонақоҳ девори, ҳужралар устуни квадрат (25Х25Х5 см) пишиқ ғиштдан терилган. Масжид таъмирланмоқда.

● КАРВОНСАРОЙ, савдогар, сайёҳ ва бошқалар учун мўлжалланган қўрғон, меҳмонхона. Шарқ мамлакатлари, хусусан Туркистон ўлкасида карвон йўллари ёқасида ва шаҳарларда қурилган. Тошкент ҳам ўтмишда ўзининг карвонсаройлари билан Яқин ва Ўрта Шарқ ҳамда Шарқий Европа мамлакатлари орасида шуҳрат қозонган. 1800 йили Тошкентда бўлган рус сайёҳи А. И. Добросмисловнинг ёзишича, шаҳарда жами 45 та карвонсарой бўлиб, шундан 16 таси шаҳарнинг энг катта — Эскижўва бозори атрофида жойлашган. Карвонсаройда ортиқча молларни сақлаш учун махсус омборхонелар мавжуд бўлган. Карвонсаройлар молнинг хилига, савдогарларнинг миллатига қараб номланган. Ҳозирги автостанция (илгариги «Спартак» стадиони) ўрнидаги карвонсарой энг йирикларидан ҳисобланиб, унга ҳинд савдогарлари келиб тушар эди. Сағбон кўчасининг бозорга туташ жойида ҳам карвонсарой бўлган. Рус савдогарларининг ҳам бир неча карвонсаройлари бор эди. Улардан бири Салор канали бўйида (Полторацкий кўчаси ва Фарғона йўли чорраҳасида) жойлашган. Карвонсаройлар кўп ҳолларда шаҳар дарвозалари ёнида жойлашган ва жуда гавжум бўлган. Масалан, Қашғар (Оққўрғон) дарвозаси ёнида 4 та карвонсарой бор эди. Қашғардан келган карвонларнинг бир қисми Ўрда бозори ёнидаги карвонсаройларда қўнар эди. Тошкентдаги карвонсарой бинолари 20-аср 40-йилларигача мавжуд бўлган. Темир йўл ва автомобиль алоқасининг кенгайиши, янги типдаги меҳмонхоналар қурилиши натижасида карвонсаройга эҳтиёж қолмади.

● КАТТА ЎЗБЕКИСТОН ТРАКТИ, умумдавлат аҳамиятига молик автомобиль йўли. Гавҳар кўчаси ва Тошкент автомобиль ҳалқа йўлидан бошланиб, Термиз шаҳрига қадар давом этади. Тошкент марказидан жануби-ғарбга томон йўналган. Умумий узунлиги 708 км. Милод бошларида Шарқ мамлакатларига борувчи халқаро карвон йўли сифатида пайдо бўлган. 30-йилларда автомобиллар кўпайиши муносабати билан трактда йўл-эксплуатация хизмати ташкил этилди ва йўлни реконструкция қилиш ишлари олиб борилди. 1940—41 йилларда тракт ҳашар йўли билан қайта қурилди. Урушдан кейинги йилларда ободонлаштирилди.

Бу йўл Ўзбекистон территориясини шимолдан жанубга кесиб ўтиб, Тожикистон ва Туркманистон территориясига туташади; 8 шаҳар, 6 вилоят территориясидан ўтиб, республиканинг иқтисодий, маъмурий ва маданий марказларини бирбири билан боғлайди.

Трактнинг Тошкент территориясидаги қисмида: «СредазНИИгаз» институтининг ишлаб чиқариш лаборатория комплекси, «Дўстлик» дам олиш зонаси, «Дўстлик» кафеси бор; яқинида «Собир Раҳимов» метро станцияси жойлашган.

● КЎКЧА (тарихий манбаларда Шайх Зайниддин), даҳа, Тошкентнинг тўрт қисмидан бири; шаҳарнинг Ғарб томонида; асосан, ҳозирги Шайхонтоҳур райони территориясида жойлашган. Чегараси шарқдан Сағбон кўчасининг шарқидан, жануби-шарқ тарафидан Қуйи Бўзсув бўйлаб (ҳозирги Уйғур ва Самарқанд дарвоза кўчаларининг оралиғидан) ўтган. Бу ерларнинг ғарбида кўкчаликларнинг боғлари ва полизлари (мавзелари) бўлган. Подахона ариғи даҳадаги йирик ариқлардандир. Машҳур меъморий иншооти — Шайх Зайниддинбобо мақбараси. Тадқиқотчилар фикрича, «Кўкча» номи аслида кокак, яъни кохча — қалъача сўзларидан келиб чиққан. Кўкча даҳаси Себзор, Шайхонтоҳур ва Бешёғоч даҳалари билан чегарадош бўлган...



САҲИФАЛАРИДА

● НАВРЎЗ (форсча — янги кун) — Туркистон ва Яқин Шарқда яшовчи ўзбек, озарбайжон, тожик, ҳинди, эрон ва бошқа халқларнинг қадимий анъанавий янги йил байрами. Шамсия ҳисобида йилнинг 1-куни бўлиб, баҳорги тун ва куннинг тенглигига, яъни бизнинг ҳисобда 21—22 мартга тўғри келади. Наврўзда Қуёш ҳамал буржига кириб, кундузи узая бошлайди. Бу кун табиатнинг уйғониши, баҳорнинг бошланиши ҳисобланган ва халқ байрами сифатида нишонланган. Тарихий манбаларга қараганда, наврўзни байрам қилиб ўтказиш ахоманийлар даври (милоддан аввал 6—5-асрлар)дан бошланган. Кейинчалик наврўзда ислом динининг айрим маросимларини ҳам ўтказиш одат тусига киритилган. Наврўзнинг дастлабки кунлари кичик наврўз деб аталиб, олти кундан кейин катта наврўз байрами ҳам бўлган. Абу Райҳон Берунийнинг «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асарида хабар берилишича, халқ байрами кичик наврўздан катта наврўзгача 6 кун давом этган. Катта наврўздан бошлаб деҳқонлар дала ишлари, боғбонлар эса ўз юмушлари билан машғул бўлганлар. Уй бекалари байрам олдидан ҳовли, уйларни саришта қилиб, наврўзга ҳозирлик кўрганлар. Ёш-яланглар янги кийимлар, пойабзаллар тайёрлаб, байрам кунлари кечаси билан ухламасдан эртак, ҳикоя, достонлар айтишиб, шеърхонлик қилишган. Байрамни ашулалар айтиб, турли ўйинлар ўйнаб, хурсандчилик билан кутиб олишган. Байрамнинг биринчи куни улоқ, отда пойга мусобақалари, кураш, қўчқор уриштириш, хўроз уриштириш каби ўйинлар уюштирганлар. Лола сайли, боғ сайли каби оила билан табиат қучоғига чиқишлар бўлган. Наврўз кунлари урушлар тўхтатилган, гина-кудуратлар унутилган, одамлар тинч ва яхши қўшничилик алоқаларига интилганлар, ота-оналар, қариндошлар, ёр-биродарлар билан дийдор кўришганлар, марҳумлар қабрини зиёрат қилиб, тартибга келтирганлар. Наврўз байрами кунлари маҳбусларни озод қилиб, гуноҳкорларнинг гуноҳидан кечиш одати ҳам бўлган. Наврўз кунлари номи «син» ҳарфидан бошланувчи етти хил таом («Ҳафтисин») тайёрлашган. Сумалак ҳам ана шу ҳафтисиннинг бири бўлган. Турли ўтлардан сомса, чучвара каби ширин-ширин таомлар пиширилган.

Наврўз байрами фақат дам олиш, кўнгил очиш ва кўнгил олиш кунларигина бўлиб қолмай, меҳнат байрами ҳам саналган. Деҳқончилик, боғдорчилик, гуллар экиш ишлари бошлаб юборилган. Катта наврўз куни далага дастлабки қўш тушиб, ер ҳайдашга киришилган. Октябрь революциясидан сўнг Ўрта Осиё ва Озарбайжонда наврўз халқларнинг тарихий қадриятлари сифатида давлат томонидан эътиборга олинмади, баъзи йиллари ҳатто таъқиб қилинди. Ўзбекистонда 1989 йилдан уни кенг нишонлашга эътибор берилди. 1990 йилдан Ўзбекистон ҳукуматининг фармонига биноан 21 март наврўз халқ байрами сифатида нишонланадиган бўлди ва дам олиш куни деб белгиланди.

● ОҚҚЎРҒОН, қадимги Тошкентнинг атрофидаги мавзелардан бири, шаҳарнинг шарқий чеккасида, Шибли ариғидан шарқда жойлашган. Шарқий чегараси Салор каналига қадар бўлган. Мавзенинг жанубий қисми (ҳозирги «Ўртоқ» кондитер фабрикаси ўрни) тарихий манбаларда «Чимработ» деб аталган. У шаҳардан Паркентга борадиган карвон йўлида жойлашган. Оққўрғон территорияси Оққўрғон ва Дархон (Дархонотасой) ариқларидан суғорилган (19-аср 2-ярмида Нурмуҳаммад ота ариқоқсоқол бўлган). Маҳаллий аҳоли қудуқ сувларидан ҳам фойдаланган. Мавзенинг ер юзаси шарққа томон зинапоясимон пасайиб борган. Айрим тепаликлар ҳам бўлган.

Ўрта аср вақф ҳужжатларида Оққўрғон ерлари Хўжа Аҳрорга қарашли бўлган. Ҳужжатда Салор номи Рудак (дарёча) деб битилган. Кейинчалик 19-аср 2-ярмига қадар Хўжа Аҳрор мадрасасининг вақф ерлари ҳисобланган. 19-аср 1-чорагида шаҳарнинг шу мавзега қараган дарвозаси ҳам Оққўрғон дарвозаси (1830 йиллардан эса Қашқар дарвозаси) деб аталган. Оққўрғонда Шайхонтоҳур даҳаси маҳаллалари аҳолисининг дала ҳовлилари бўлиб, аҳоли ёзги мавсумда деҳқончилик ва боғдорчилик билан шуғулланган. 1865 йил 9 май куни Черняев аскарларининг бир дастаси Оққўрғон тепалигига келиб ўрнашган, ўша куни Алимқул амирлашкар қўмондонлигидаги Тошкент мудофаачилари билан Черняев отряди ўртасида Оққўрғонда (ҳозирги Пушкин кўчаси билан Урицкий кўчаси кесишган жой) қаттиқ жанг бўлиб, руслар чекинишга мажбур бўлган, тошкентликлар уларни Шўртепага қадар таъқиб қилиб борган. Бу жанг тафсилоти унда шахсан қатнашган тошкентлик тарихчи Муҳаммад Солиҳнинг «Тарихи жадидаи Тошканд» асарида баён этилган. Тошкентни рус қўшинлари босиб олгач, 20-аср бошларига келиб Оққўрғон Янги шаҳар билан туташган. 1867 йил Оққўрғон тепалигида қурилган обсерватория ҳозиргача фаолият кўрсатмоқда. 1906 йилда Оққўрғоннинг шимолий чеккасидан Тошкент — Оренбург темир йўли ўтказилди. Кейинги йилларда Экскаватор заводи (1932), Ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш инженерлари институти (1934), дастлабки ўрта мактаб (1940), «Старт» стадиони (1958) қурилди. 40—50-йилларда аҳоли кўпайиб хонадонлар сони 100 дан ошди. Юқори Оққўрғон ва Қуйи Оққўрғон (Дархон) маҳаллаларига бўлинди. Маҳаллада бир неча масжид ҳам бўлган. 50-йилларда қўрғонхонадонлар, боғ ва экинзорлар ўрнида бир ва кўп қаватли турар жой бинолари қурилиб янги кўчалар (Новомосковск, Ҳидирали Эргашев, Муртазоев, Мусоргский, Т. Содиқов ва бошқалар) очилди. Ҳозирда Оққўрғон ўрнида Оққўрғон, Улуғбек, Дархон ва бошқа маҳаллалар мавжуд.

● САМАРҚАНД ДАРВОЗА КЎЧАСИ, Охунбобоев майдони (Чорсу) билан Оқтепа майдони оралиғида. Тошкент маркази ғарбида, узунлиги — 4 км. Тошкентнинг қадимий кўчаларидан. Шаҳарни Самарқандга бориладиган карвон йўли бошланишидаги шаҳар дарвозаси — Самарқанд дарвоза (номи шундан, 1893 дан) билан боғланган. 1966 йили Бўзсув канали устига (Оқтепа майдони) қурилган кўприк Эски шаҳарни Чилонзор турар жой массиви билан боғлади. Самарқанд дарвоза кўчасида савдо-кулинария билим юрти, каравот заводи, «Самарқанд» чойхонаси, Заҳариқ қабристони ва бошқалар бор. 1983 дан реконструкция қилинмоқда.

● САҒБОН, Кўкча даҳасидаги маҳалла. Қўшчимозор, Ев, Ачавот маҳаллалари билан чегарадош бўлган; шимолда шаҳар деворига, жанубда Эски шаҳар бозорига ёндошган. Маҳаллада 400 дан ортиқ хонадон яшаган. Аҳолиси асосан, ўзбеклар бўлиб, ҳунармандчилик (косибчилик, совунгарлик, тўқувчилик ва бошқалар), деҳқончилик ва боғдорчилик (шаҳар ташқарисидаги ерларида) билан шуғулланган. Мактаб, масжид, чойхона, баққоллик дўконлари бўлган (20-аср боши). Айрим олимлар (Ўзбекистон ФА мухбир аъзоси А. Муҳаммаджонов) фикрича «Сағбон» номи «Суқбон», яъни «бозор қоровули» маъносида. Ўтган асрларда даштдан Эски шаҳар бозорига ҳайдаб келинган қўй, қорамол ва йилқиларни қўриқлаб, бозорда фаррошлик ҳамда жаллоблик қилувчи кишилар шу маҳаллада яшаган. Ҳозир маҳалла территорияси обдонлаштирилмоқда.

● СЕБЗОР, даҳа (тарихий асарларда, масалан, Муҳаммад Солиҳнинг «Тарихи жадидаи Тошканд» асарида Ҳазрат Имом Қаффол Шоший даҳаси дейилган). Тошкентнинг тўрт даҳасидан бири. Шаҳарнинг шимолида, асосан, ҳозирги Собир Раҳимов райони территориясида бўлган. Кўкча, Шайхонтоҳур ва Бешёғоч даҳалари билан туташган. Майдони бўйича Тошкентдаги энг кичик даҳа. Чегараси ғарбдан Сағбон ва Қорасарой кўчаларининг оралиғидан (ҳозирги Зарқайнар кўчасининг ғарбидан), жанубда Жангоб ариғидан ўтган. Бу ерларнинг шимолида ва шарқида себзорликнинг боғлари ва деҳқончилик ерлари (мавзелари) жойлашган. Кайковус, Шаҳар (Танишаҳар) каби йирик ариқлар ўтган. Даҳада шаҳар миқёсидаги молбозор жойлашган эди. 19-аср ўрталарида Себзорда 3 мадраса, 78 масжид бўлган. Тошкентнинг 3 дарвозаси (Лабзак, Тахтапул, Қорасарой), Эскижўва бозори ҳам асосан себзор территориясида жойлашган. Аҳолиси ҳунармандчилик (косиблик, тўқувчилик, читга гул босиш ва бошқалар) билан, шаҳар ташқарисидаги ерларида деҳқончилик ва боғдорчилик билан шуғулланган. Даҳада кўҳна қабристонлар бўлган. Булардан Ковота маҳалласидаги Войвойота қабристони энг қадимийси деб ҳисобланади. Дарвишаққофқа (Тешикқофқа) қабристони илгари шаҳар дарвозасидан ташқарида бўлган. Археологик ёдгорликларидан Ҳазрати Имом комплекси сақланган. 1870-йилларда 2230 хонадон бўлиб, 18650 киши яшаган.

Себзор даҳасида 65 та маҳалла бўлган.

● ТЕМУР ибн Тарағай Баҳодир (1336—1405), йирик феодал давлат арбоби, тарихда ўчмас из қолдирган саркарда. Амир Темур, Амир Соҳибқирон ва бошқа номлар билан ҳам машҳур. Отаси Тарағай барлос қабиласи амирларидан бўлган. 14-аср ўрталарида Темур Чиғатой улусидаги феодал тарқоқликдан фойдаланиб ҳокимиятни эгаллади, кўчманчи зодагонлар, ўтроқ феодаллар ва мусулмон руҳонийлари уни Самарқандда Мовароуннаҳр амири деб эълон қилдилар (1370). Улусда мўғулларнинг қарийб 150 йиллик ҳукмронлигига барҳам берилди, лекин Темур хонлик тахтига анъанага кўра, чингизийлардан номигагина дастлаб Суюрғотмишни (1370—80-йилларда хон), унинг вафотидан сўнг Султон Маҳмудхонни (1388—1402 йилларда хон) тайинлаб, амалда бутун марказий ҳокимиятни ўзи бошқарган. 1370—1404 йилларда Яқин ва Ўрта Шарқ, Кавказ, Шимолий Ҳиндистон, Дашти Қипчоқ, Мовароуннаҳрни ўз ичига олган йирик марказлашган давлат барпо қилган. Темур амир Ҳусайн ҳарамидаги Сарой Мулкхоним (Чингизийлардан Қозонхоннинг қизи)га уйлангандан сўнг (1370), «кўрагон» (хоннинг куёви) унвонини олган.

Темур Тошкентда 1361, 1363—1364, 1365, 1390, 1405 да бўлган. Тошкент шаҳри шимолдаги дашт ерлар билан деҳқончилик қилинадиган обод воҳалар чегарасида жойлашган муҳим стратегик жой бўлганлиги учун Темур бу шаҳарга катта аҳамият берган. Тошкент 1368—69 йилда Темурга тобе бўлган эди. Бу ҳақда «Темур тузуклари»да шундай дейилади: «Амир Хизир Ясовурий (Чингизхон қўшинининг сўл қанотига қўмондонлик қилган амир Ясовурнинг авлоди) халқи — ясурийлар билан Тошкент вилоятини босиб олган эди. Кайхусрав (Хутталон вилоятининг ҳокими) ва Ўлжойту Аперди (Арҳанг вилоятининг ҳокими)ни бир-бири билан яраштирдим. Буларга ёрдамчи куч йўсинида бир тўда киши қўшдим. Икковлари бирлашиб Ясовурий фуқароларига ҳужум қилиб, талон-тарож қилдилар. Амир Хизир (Ясовурий) ожиз қолиб, менинг паноҳимга келди. Шундай қилиб Мовароуннаҳрни уруш-талашдан тинчитдим». «Мужмали фасиҳ» асарида тилга олинишича, 1390 йили Темур Дашти Қипчоқ сари отланган ва Тошкентда қишлаган. Темур Тошкентда бир муддат бетоб бўлиб кейин тузалган. У Олтин Ўрда хони Тўхтамишхон билан бўладиган жангга жиддий тайёргарлик кўрган. Бу ерда жуда катта қўшин тўпланган. 1391 йил Темур Тошкентда Шоҳрух ва амирзода Пирмуҳаммадни Самарқандни идора этиш учун жўнатган. Темур баҳор пайтида Тошкентдан чиқиб Тўхтамишхон билан урушиш мақсадида Дашти Қипчоққа отланган. Тўхтамишхон мағлуб бўлиб, унинг улуси ва эли талон-тарож қилингач, Темур Тошкентга катта ўлжа билан қайтган. Темур Мироншоҳга Хуросонни идора этиш учун жўнашга Тошкентда рухсат берди. 1392 йил Темур Тошкентдан Самарқандга қайтган. 1404—1405 йил қишида Темур Хитой томон юришга отланганда қўшинининг бир қисми Тошкентда қишлаган. Тошкентда бўлган пайтда у «азиз-авлиёлар» қабрларини кўп зиёрат қилган Зангиота мақбараси ва Шайх Зайниддин бобо мақбараси, Эскижўва бозори ёнидаги ҳозир Қизилтут кўчасида авлиё Шоҳ Азиз масжиди ва бошқаларни қурдирган. Тошкентдаги марказий кўчалардан бирига (1992 гача Энгельс кўчаси) Амир Темур номи берилган.

● ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ, кооперация, акционерлик ва пай асосида ташкил қилинган банклар; ўз фаолиятини шартнома асосида амалга оширади. Ҳуқуқий ва якка шахсларга қарз беради, ҳисоб-китоб ва бошқа хизматларни амалга оширади, вексель ва қимматбаҳо қоғозларни ҳисобга олиш билан шуғулланади. Тижорат банклари маблағлари манбаи, миқдори, муомала тури қайси тармоқ ва территорияга хизмат қилиши билан бир-биридан фарқ қилади, уларга республиканинг бошқа шаҳарларида, бошқа республикаларда, ҳатто ажнабий мамлакатларда ўз бўлимларини очиш ҳуқуқи берилган. Ҳозир Тошкентда ўнлаб тижорат банклари ва уларнинг бўлимлари мавжуд. Тижорат банклари Ўзбекистон давлат банкида рўйхатдан ўтадилар, уларнинг фаолияти белгиланган нормативлар ва қонунлар, шунингдек, ҳар бир банкнинг ўз Низоми асосида назорат қилинади.

● ТЎҚИМАЧИЛИК КОМБИНАТИ (Қушбеги кўчаси, 6), ип-газлама ишлаб чиқариш бирлашмасига қарашли корхона. Ип-газламалар, турли хил иплар ишлаб чиқарилади. Таркибида (1989): 2 йигирув-тўқув, ип йигирув ва пардозлаш фабрикалари, механика заводи бор. Комбинат қурилиши 1932 йилда бошланган. 1934 йил дастлабки маҳсулот олинган. 1935 йил йигирув-тўқув ва пардозлаш фабрикаларида 112 минг йигирув урчуғи, 3,3 минг тўқув станоги, 22 гул босиш машиналари ишга туширилган: 1289 т калава ип, 8,7 млн. погон м хом газлама (дағал сурп), 8,05 млн. погон м газлама ишлаб чиқарилган, механика заводи ишга туширилган. 1940 йил йигирув-тўқув фабрикасининг 2-навбати қурилган, 1941 йил тўқимачилик комбинати территориясида Ленинграддан Тошкентга эвакуация қилинган ип фабрикаси (фронт ва фронт орқасини ип билан таъминлаган ягона фабрика) жойлаштирилди ва ишга туширилди. 1952 йил 3-йигирув фабрикаси (1966 дан ип йигирув фабрикаси) қурилди. 1977 йил Тўқимачилик комбинати реконструкция қилиниб, 3,9 мингдан ортиқ замонавий машина ва станоклар ўрнатилди. Собир Раҳимов райони ва Паркент шаҳрида филиаллари бор (йиллик қуввати 20 млн. погон м ип газлама). 1981 йил автоматлаштирилган йигирув-тўқув фабрикаси (йиллик қуввати 90,4 млн. погон м ип газлама) қурилиши бошланди. 1990 йил 13,6 минг т калава ип, 112,3 млн. погон м хом газлама, 154,3 млн. погон м тайёр газлама, 232 млн. шартли ғалтак ип ишлаб чиқарилган. Ялпи маҳсулот ҳажми 251,3 млн. сўмдан ортиқ (1990), Тўқимачилик комбинати маҳсулотлари чет мамлакатларга экспорт қилинади. Комбинатда 1200 киши ҳукумат мукофотлари билан тақдирланган, уларнинг ичида Н. Аминов, Б. Жўраева, Л. П. Казанцева, М. Йўлдошева каби машҳур ишчилар бор.

● УККОША БУЛОҒИ, Тошкент булоқларидан энг машҳури. Бадалмат ҳаммомининг ўрнига қурилган «Чорсу» меҳмонхонаси ёнидаги Чорсу жарининг ён бағрида жойлашган эди. Суви шифобахш ҳисобланган. Тепасида шийпон бўлган. Булоқдан сув олиш учун заранг коса қўйилган. Мешкобчилар Уккоша булоғидан сув олиб бозорда сотишган. Меҳмонхона қурилиши муносабати билан булоқ беркитиб ташланган.

● ХЎЖА АҲРОР (Хожа Аҳрор) (лақаби; асли Убайдуллоҳ ибн Маҳмуд) (1404—1490) — Ўрта Осиёда нақшбандийлик тариқатининг йирик намояндаси; шайх, муршид, йирик мулк эгаси. Тошкент вилоятининг Боғистон қишлоғида туғилган. Ота-боболари ҳам шайх бўлиб ўтган. Самарқанд мадрасасида таҳсил кўрган. 24 ёшида ўзига пир ахтариб Ҳиротга борган. Бироқ муршидлик фатвосини у ердан эмас, балки Чағониён вилоятидан, Баҳоуддин Нақшбандий издоши бўлган Ёқуб Чархийдан олган. Хўжа Аҳрор Мовароуннаҳрда катта нуфузга эга бўлиб, халқ орасида валий (авлиё) деб танилган. 1431-32 йилларда Хўжа Аҳрор Тошкентга қайтган ва деҳқончилик билан машғул бўлган, шунинг учун уни «қишлоқи шайх» деб ҳам аташган. Тарихий манбаларда Хўжа Аҳрор 1454 йилдан тилга олинади. Мирзо Улуғбекка замондош бўлган. Унинг Самарқандда яшаган даври темурий шаҳзодаларнинг тож-тахт талашган даврига тўғри келди. 1458 йилги Самарқанд аҳолисининг қўзғолонида халқ томонида бўлади. Мовароуннаҳрда Хўжа Аҳрорга тегишли жуда кўп мулклар бўлган. Хусусан Тошкент вилоятидаги 42 та ер мулки (жумладан шаҳарнинг шимоли-шарқидаги Оққўрғон мавзеси, шимолда Келес мавзеси ва бошқалар), чорбоғлар (Унжикат, Қурама, Диҳжандиза, Сачак, Қумаш, Жалбош, Хитой, Қорахитой ва бошқалар) унга катта даромад келтирган. Бундан ташқари Хўжа Аҳрорга кўплаб тегирмон, дўкон, савдо расталари, тимлар, шаҳар ҳаммомлари, подалар қарашли бўлиб, кўпгина хорижий давлатлар билан ҳам савдо-сотиқ олиб борган. Хўжа Аҳрор умуман мамлакатнинг бутун ички ва ташқи сиёсий ҳаётида етакчи ўрин тутган. Абу Саид (1451-69). Султон Аҳмад (1469-94) ҳукмронлиги даврида унинг мавқеи айниқса кучли бўлди. 15-асрнинг 2-ярмида Тошкентда қурилган кўп меъморлик ёдгорликлари Хўжа Аҳрор номи билан бевосита боғлиқ. Унинг ҳомийлигида шаҳарда мадраса, хонақоҳ, масжид, ҳаммом ва ҳоказолар қурилган. Бугунги кунда улардан Хўжа Аҳрор Жоме масжиди сақланиб қолган, мадраса (1451 да қурилган) эса 1954 да бузиб ташланган.

● ЧОЧ, Шош, асосан ҳозирги Тошкент вилояти территориясида жойлашган тарихий-маданий вилоят ва қадимги давлат номи. Чочнинг илк бор тилга олинган даври мунозарали. Милоднинг бошларида Чоч Канғ (Кангюй) давлати, 5—6-асрлар ўрталарида эфталитлар давлати таркибида бўлган. Чочистон номи дастлаб сосонийларнинг «Зардўшт Каабаси» ёзувида (262 йил) учрайди. Чоч Сўғд ёзувларида 4-асрда, 7-асрга оид Афросиёб деворий ёзувида Сўғдга келган Чоч элчилари қаторида, 8-аср бошида арабларга қарши иттифоқ иштирокчиси сифатида тилга олинган. 10-аср географларининг маълумотларига кўра, Чоч территорияси шимолдан Келес дашти ва Сойлиқ қишлоғи ёнидаги тоғлардан бошланган мудофаа девори билан, ғарбдан Сирдарё, шарқдан Тангритоғ (Тяньшань) тоғлари билан чекланган, жанубдан эса Илоқ билан туташ бўлган.

Сўнгги антик ва илк феодализм давридаги Чоч комплекс хўжаликка эга бўлган мулк сифатида тавсифланади. Деҳқончилик ривожланган ирригация тармоқлари асосида олиб борилган. Деҳқончилик ерлари Чирчиқ дарёсидан бошланган 50 га яқин каналлардан суғорилган. Асосий экинлар буғдой, арпа, тариқ бўлиб, тоғ ва даштда чорвачилик, жумладан йилқичилик ривожланган. Йирик шаҳарлар шаклланa бошлаган, улардан энг йириги ва Чочнинг пойтахти Сирдарё ҳавзасида жойлашган бўлиб, унинг вайроналари Қанқа шаҳри харобаси ўрнида бўлган. 1-минг йилликнинг 1-чорагидан Ч. территориясида олтин, кумуш, рангли металл рудалари, ялтироқ тошлар қазиб олинганлиги маълум. 3-аср охиридан бошлаб Чочда ҳукмдорнинг сурати, тамғаси ва ёзуви туширилган тангалар муомалада бўлган. Чочнинг музика маданияти анча ривожланган бўлиб, бир қанча Шарқ мамлакатлари маданиятига таъсир кўрсатган. 6-аср 2-ярмидан Чоч Ғарбий Турк хоқонлиги таркибига кирган. 641 йилда эса Шарқий Турк хоқонлигига қарши курашда қатнашган. Шарқий Турк хоқонлиги тор-мор этилгач, Чоч ярим мустақил ўлкага айланган, ўлкани ҳоким бошқарган. Чочда илк феодал даврига мансуб 30 дан зиёд шаҳарлар бўлганлиги аниқланган. Кўчманчи халқлар билан алоқанинг кучайиши Чочнинг шимолий районлари хўжалигини ривожланишига олиб келган. Бунда Чирчиқ водийси бўйлаб ўтган шимолий карвон йўли катта роль ўйнаган; Салор бўйида ўлканинг янги маркази Мадинат-аш-Шош шакллана бошлаган. Чочда яна бир қанча шаҳарлар юксалган, ҳокимининг қароргоҳ қалъаси ролини ўйнаган Жабғукат (Ябғу ҳукмдори шаҳри), Худойнкат (хонимлар шаҳри), Данфиғонкат (ибодатхона шаҳри), металл эритиш марказлари, карвон йўлидаги савдо пунктлари шулар жумласидан. 7-асрда Чоч сўғд ва туркий халқлар маданияти туташган маркага айланган. Бу даврдаги Чочнинг ижтимоий тузилиши типик феодал тарзда бўлган: олий табақа — деҳқонлар, феодал аристократлар, эркин жамоа аъзолари — озод ва ярим қарам аҳоли — (чорикорлар). Диний эътиқодлар турлича бўлган. Зардўштлик муқаддас ҳисобланган ҳайвонларга сиғиниш билан чатишиб кетган, буддизм тарқала бошлаган. Туркий халқлар табиат кучларига, аждодлар руҳига сиғинишган, ҳайвонларни қурбонлик қилишган. 713 йили Араб халифалиги Чочни эгаллаб ўз ноибини тайинлаган. Чоч ва Илоқ аҳолиси дастлаб исломнинг шофиъия мазҳабига эътиқод қилганлар (кейинчалик эса Абу Ҳанифа мазҳабига ўтилган). Ҳанафия мазҳабининг тарафдори ва тарқатувчиси 976—977 йилларда Бинкат (Тошкент) да вафот этган Абу Бакр Муҳаммад Қаффол Шоший бўлган. У кейинчалик халқ орасида Ҳазрати Имом (Хастимом) номи билан машҳур бўлган. Чоч халқи халифаликка қарши кўтарилган Муқанна (758—773), Рофеъ ибн Лайс (804—810) қўзғолонларида фаол қатнашган. 8-асрда Чочнинг шимолий районлари Хўжакентдан Сирдарёгача девор билан ўралган. Унинг харобалари ҳозир ҳам узун марза тарзида сақланиб қолган бўлиб, Кампирдевор номи билан машҳур (тўғриси Кандипарак, форсча канд, кент — вилоят, қўрғон, парак — тўсиқ девор).

Чоч 9-аср бошидан Сомонийлар давлати таркибига кирган. Унинг янги пойтахти — Бинкат бунёд этилган. Вилоят чегараларида ғозийлар учун работлар қурилган. Чочда сомонийлардан Яҳъё, Аҳмад ва унинг ўғли Ёқуб ҳукмронлик қилган (819 дан). Тарихчи Истахрийнинг маълумотига кўра, 9—10-асрларда Чоч Мовароуннаҳрнинг йирик иқтисодий ва маданий вилоятига айланган. Чоч шаҳарлари дашт ва тоғлиқ районларга бориладиган транзит йўллари ёқасида жойлашган. Бу карвон йўллари Бухоро ва Самарқандни, Чоч ва Илоқ марказларини Фарғона билан бирлаштирган. Чочда турли ҳунармандчилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш ривожланган. 10-аср географи Мақдисийнинг қайд қилишича, Чочдан бошқа ўлкаларга кўплаб эгарлар, садоқлар, чодирлар, пичоқлар жойнамозлар, қайчилар, ажойиб камонлар, газламалар, игналар чиқарилган. Айниқса, сирли сопол идишлар шуҳрат қозонган. 10-аср охирида Чоч Қорахонийлар давлати, 13-аср бошида Хоразмшоҳлар давлатига тобе бўлган. 13-аср бошида найман хони Кучлук билан бўлган урушда Муҳаммад Хоразмшоҳ Чоч пойтахтини вайрон қилиб, аҳолисини кўчиртирган. Чингизхон ҳужумидан сўнг (1220), Чоч мўғуллар қўлига ўтган.

● ШАЙХОНТОҲУР, даҳа. Тошкентнинг тўрт қисмидан бири. Шаҳарнинг шарқида (ҳозирги Шайхонтоҳур райони территориясида) жойлашган. Шайх Умар Боғистонийнинг ўғли Шайх Хованди Тоҳур (14-аср) номи билан аталган. Шайхонтоҳур, Бешёғоч, Кўкча, Себзор даҳалари билан туташган. Майдони бўйича энг катта даҳа бўлган. Чегараси шимолдан Жангоб ариғидан, ғарбдан Бешёғоч — Ҳадра йўналиши бўйлаб (ҳозирги Фурқат кўчасидан) ўтган. 19-асрнинг 2-ярмидан бошлаб Анҳорнинг чап соҳилида бекларбеги ўрдаси ва мавзелар ўрнида Янги шаҳар барпо этилди. Даҳада Шайх Хованди Тоҳур мақбараси катта зиёратгоҳ жой бўлган. Бу ерда сайллар ўтказиб турилган. Ўрда яқинида аҳамияти жиҳатидан Чорсу бозоридан кейинги ўринда турадиган Қаймоқ бозори жойлашган эди. Даҳанинг шарқий қисмидан Анҳор ўтган. Даҳа ерлари шу Анҳордан бош олган ариқлардан суғорилган ва бошқа даҳаларга нисбатан боғлар, экинзорлар кўп бўлган. 19-аср ўрталарида Шайхонтоҳурда учта дарвоза (Қўймас, Кўкон ва Қашғар) бор эди. Улар янги Ўрда қурилган вақтда ўрнатилган; 70 масжид, 3 мадраса, шунингдек карвонсаройлар, тегирмонлар, ҳар маҳаллада 1—2 тадан чойхона бўлган. Шайхонтоҳур Эски шаҳар бозори (ҳозирги Эскижўва ёки Чорсу бозори)нинг бир қисмини ўз ичига олган. Аҳолиси асосан дегрезлик, эгарчилик, газлама тўқиш ва бошқалар билан шуғулланган. Шаҳар ташқарисидаги ерлари (Оққўрғон, Яланғоч, Қорасув, Бўз, Шўртепа, Посира ва бошқа мавзелар)да деҳқончилик ва боғдорчилик қилинган. Ҳозирги Шайхонтоҳур территориясида жамоат ва турар жой бинолари қурилган.

● ШАҲАР ҲОКИМИ, маъмурий лавозим; шаҳар ўзини-ўзи идора қилиш бошлиғи, Туркистонда ўрта асрларда, хусусан хонликлар даврида муайян шаҳар ва унинг атрофидаги қишлоқларни хон номидан бошқариш учун тайинланадиган (айрим ҳолларда сайланадиган) амалдор.

Тошкент 18-асрнинг 2-ярмида 4 даҳадан иборат бўлиб, ҳар бир даҳанинг ўз ҳокими бўлган. Бу даврда ҳар бир даҳа ва унинг ҳокими мустақил эди. 1784 йилда Шайхонтоҳур даҳасининг ҳокими Юнусхўжа шаҳарнинг бошқа даҳалари билан бўлган низоларда ғалаба қозониб, бутун шаҳар ва вилоятга ҳоким бўлди. Шундан сўнг чорҳокимликка чек қўйилиб, Тошкентда Юнусхўжа бошчилигида марказлашган давлат идораси барпо этилди. Юнусхўжа ҳукмронлигининг сўнгги даврида у «хон» деб ҳам аталди. Тошкент давлати Қўқон хонлиги тасарруфига ўтгач, шаҳар ва вилоятни бекларбеги бошқарган.

Тошкент Россия империяси томонидан босиб олингандан (1865 дан) 1917 йилгача Тошкентда шаҳар ҳокими маъмурий лавозими жорий бўлди. Бу даврда шаҳар ҳокими Шаҳар думаси томонидан 4 йил муддатга сайланган. Туркистон генерал-губернаторининг тавсияси билан ҳарбий министр томонидан тасдиқланган. Дума мажлисларини бошқариб, унинг қарорлари бажарилишини назорат қилиб турган. Икки муовини бўлган. Шаҳар ҳокими лавозими Шаҳар думаси билан бир вақтда (1917) бекор қилинган.

1991 йил 18 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг «Ўзбекистон Республикаси пойтахти — Тошкент шаҳри мақоми ва давлат ҳокимияти органлари тўғрисида»ги қарорига мувофиқ Тошкентда ҳокимлик лавозими жорий этилди. 1991 йил 29 декабрда шаҳар тарихида биринчи марта умумхалқ овоз бериш йўли билан Шаҳар ҳокими сайланди. Тошкент Шаҳар ҳокими Ўзбекистон Президентининг шаҳардаги расмий вакили ҳисобланиб, Ўзбекистон Республикаси қонунларида ўзига бериб қўйилган ваколатлар доирасида қарорлар ва фармойишлар чиқаради. Ҳокимнинг қарорлари ва фармойишлари шаҳар территориясидаги барча корхоналар, муассасалар, ташкилотлар, жамият ва бирлашмалар учун, шунингдек мансабдор шахслар ва фуқаролар учун мажбурийдир.

Тошкент Шаҳар ҳокими Тошкент шаҳар Кенгашига бошчилик қилади ва унга ҳисоб беради.

● ЎРДА, ўрта асрлардаги шаҳар қалъаси; Тошкентнинг ҳарбий-маъмурий маркази (9—19-асрлар). Дастлаб, тахминан ҳозирги Эскижўва майдони территориясида жойлашган. 10-аср тарихчилари (Ибн Ҳавқал, Мақдисий, Истахрий)нинг ёзишича, шаҳар арки ёки шаҳристон (кўҳандиз)нинг икки дарвозаси, ичида ҳоким саройи, зиндон бўлган. 15—17-асрлар шаҳар территориясининг кенгайиши муносабати билан унинг жанубида — Бешёғочдаги Қоратош маҳалласида янги Ўрда қурилган, 19-асрда у «Эски Ўрда» номи билан машҳур бўлган. Ўрда комплексида маъмурий бинолар ва сарой бўлган; ундан фақат 15-аср охири — 16-асрга оид ҳаммом биноси (Қоратош ҳаммоми) харобалари сақланган. 17-аср бошларида Бухоро хони шаҳар билан Ўрдани бутунлай вайрон қилган. 18-аср 80-йилларда Шайхонтоҳур ҳокими Юнусхўжа ҳукмронлиги даврида Шайхонтоҳур даҳасида янги мудофаа деворлари билан ўралган кичик Ўрда ҳам қурилган. 19-аср бошида Қўқон хони Олимхон қўшинлари Тошкентни босиб олаётган пайтда Юнусхўжа Ўрдаси вайрон қилинган. 19-аср 30-йилларида Қўқон хони Тошкентни ўз ҳокимиятининг шимоли-ғарбдаги таянч пункти деб ҳисоблаб, Анҳор каналининг чап соҳили (тахминан ҳозирги «Анҳор» кафеси ўрни ва унинг ён атрофи)да янги Ўрда қурдирган. У дастлаб шаҳардан девор ва канал билан ажралиб турган. Ўрда ичкарисида мустаҳкамланган қаср, гарнизон казармалари, қурол-яроғ омборлари, маъмурий бинолар қурилган. Ўрда қалъаси 10 минг аскар сиғишига мўлжалланган эди (майдони қарийб 20 га). Ўрда шаҳар ва вилоят ҳокими учун махсус қўрғон — қароргоҳ бўлган. Кейинчалик Тошкент учун қўшимча мудофаа девори қурилиши билан Ўрда шаҳар таркибига киритилган. Шаҳарнинг янги деворида Лабзак, Қўймас, Оққўрғон (Қашғар), Қўқон дарвозалари қурилган. Тошкент Россия қўшинлари томонидан босиб олингач (1865), Черняев ўз штаби билан Ўрдадаги хон (бекларбеги) саройига, босқинчи аскарларнинг бир қисми сарой ёнидаги сарбозлар ётоқхоналарига жойлашди. Офицерлар эса Ўрда ташқарисидаги эгасиз қолган хонадонларда яшай бошлади. Лекин мустамлакачилар Ўрданинг тошкентликлар томонидан қамал қилинишидан хавотирланиб, ўша йили зудлик билан қурилган Тошкент тупроққўрғонига кўчиб ўтдилар. Ўрдадаги хон саройи ва Ўрда девори кейинроқ бузиб ташланди ва Янги шаҳарга қўшиб юборилди.

● ҚАШҒАР (Қашқар), Шайхонтоҳур даҳасидаги маҳалла. Турк-Янги шаҳар, Ила, Тожик маҳаллалари билан чегарадош бўлган. Бир чеккаси Янги шаҳарга туташган. Қарийб 130 хонадон яшаган. Аҳолиси 1830-йилларда Қўқон хони томонидан асосан Қашғардан кўчириб келтирилган қашғарликлар (номи шундан), бир қисми ўзбеклар бўлган; савдо-сотиқ, шаҳар ташқарисидаги ерлари (Оққўрғон, Бўз, Яланғоч ва бошқа мавзелар)да деҳқончилик ва боғдорчилик билан шуғулланган. Қашқарда тўртта карвонсарой, бозор, масжид, баққоллик дўконлари бўлган (20-аср боши). Маҳалланинг шарқий чеккасида шаҳар дарвозаларидан бири — Қашқар дарвозаси жойлашган эди. Черняев бошлиқ рус қўшинлари дастлаб 1864 йил 4 октябрда Тошкентга шу томондан ҳужум қилган, лекин кўп талафот бериб чекинган. 1865 йил Тошкентни рус қўшинлари босиб олгач, Қашғардаги эгасиз қолган хонадонларга рус офицерлари жойлашиб олди. 1867 йил кузида Қашғарда Туркистон ўлкасини қилич ва ўт билан босиб олиш манзаралари альбомини тайёрлаш учун таклиф этилган ва кейинчалик ўзи ҳам ушбу қатли омнинг фаол иштирокчисига айланган рус рассоми В. Верешчагин (1842—1904) яшаган. Қашғарда Ҳамза мактаб очиб бир муддат ишлаган эди. Маҳаллада маърифатчи ва адабиётшунос олим Миёнбузрук Солиҳов (1892—1939) яшаган. Тошкент зилзиласи (1966) эпицентри Қашғарда бўлган.



⊙ «Тошкент» қомуси саҳифаларида таъриф берилган Чорсу бозори расталари; Жоме масжиди; Эски шаҳардаги карвон сарой; Эски шаҳар кўчалари тасвирларини кўриб турибсиз.

Муҳаррир Эркин ЭРНАЗАРОВ.

Ҳафталик кўрсатувлар

Душанба, 5. IV

● ЎзТВ I
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 Янгиликлар.
18.10 «Ёшлик» студияси. «Ишонч».
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Рақслар гулдастаси».
19.55 Эълонлар.
20.00 Дунё хабарлари.
20.10 «Баҳор манзаралари». Телефильм.
20.20 «Шеърият дафтаридан». Ҳамид Ғулом.
20.30 «Ўзбекистон» ахбороти.
20.55 «Оқшом эртаклари».
21.10 «Давлатнинг қудрати — қонун устиворлигида».
21.40 ЎзТВ хазинасидан. «Назм ва наво». Атоий лирикаси.
22.20 «Четга оғиш ноль». Бадиий фильм.
23.40 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
«ТОШКЕНТ» СТУДИЯСИ КЎРСАТАДИ
18.30 «Ассалому алайкум» [такрор.].
19.30 Болалар учун. «Совға».
20.00 «Лаҳза». Хабарлар.
20.15 «Тадбиркорлар».
20.45 «Аёл борки дунёда...».
21.25 «Лаҳза». Хабарлар.
21.40 «Мудҳиш хато». Бадиий фильм.

● «ОРБИТА IV»
4.55, 8.20, 14.20, 17.20, 20.20— Кўрсатувлар тартиби.
5.00 «Якунлар».
5.45 «Тонг».
8.00 Янгиликлар.
8.25 «Тингланг, томоша қилинг...».
8.45 «Митти ёнут». Мультфильм.
8.55 «Бир умр қалбимга қулоқ соламан...». А. Михайлов.
9.45 «Гол».
10.15 «Янги авлод танлайди».
11.00 Янгиликлар.
* * *
14.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
14.25 «Телемикст».
15.10 «Ён дафтар».
15.15 «КОАПП». Мультфильм. 11—12-сериялар.
15.35 «Бизнинг мусиқий клуб».
16.20 «Иқболи кулганда».
17.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
17.25 «Технодром».
17.35 «НЭП».
18.10 «Оппоқ либослар». Етти серияли телевизион бадиий фильм премьераси [«Беларусьфильм»]. 1-серия.
19.40 Хайрли тун, кичкинтойлар!
19.55 Эълонлар.
20.00 Янгиликлар.
20.25 «Гол».
20.55 «Спорт уик-энди».
«Янги студия» таништиради:
21.10 «Матбуот-клуб».
22.50 «Халқ овози».
23.35 «Джем-сейшн». Танаффус пайтида [23.00] — Янгиликлар.

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.25 Ишбилармон кишилар даври.
7.55 Тонгги концерт.
8.10 «Мекленбурглик ўз кишимиз».
8.55 «Бола тилидан».
9.25 «К-2» таништиради. «Ҳалқ франи».
10.20 «Кузирхоним».
10.50 «Васильевская 13 даги озодлик».
11.10 Мульти-пульти.
11.25 Кундузги сеанс. «Тамара Александровнанинг эри ва қизи». Бадиий фильм.
13.05 «Деҳқонларга таалуқли масала».
13.30 «Катта дарё қирғоғида». Бадиий фильм. Свердловск киностудиясининг 50 йиллигига.
14.40 Ишдан бўш пайтингизда. «Хонаки клуб».
14.55 Янгиликлар.
15.10 «Американинг ёввойи табиати». Ҳужжатли фильм премьераси. 5-фильм (АҚШ).
15.40 Трансросэфир «Орол».
16.25 Ватандошлар. «Бошқа руслар».
*
17.00—19.25
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
19.25 Душанба куни детектив. «Лаки страйк» таништиради. «Адолатнинг емирилиши». «Криминал ҳодисалар» туркумидан (АҚШ).
*
20.20—21.30
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
21.30 «Ҳақиқат онлари».
22.25 «Динозавр бўлмайлик».
22.40 Спорт кўрсатуви.
22.45 «Биз фақат танишмиз».

Сешанба, 6. IV

● ЎзТВ I
7.00 «Ўзбекистон» ахбороти.
7.25 «Сумалак», «Улоқ». Телефильмлар.
7.50 Дунё хабарлари.
8.00 «Катта кўчада оркестр билан». Бадиий фильм.
9.30 Ўзбек тилини ўрганамиз.
10.00 «Ёшлар хиром айлаганда». Фильм-концерт.
10.30 Ўқув кўрсатуви. Информатика. График ахборотлар билан ишлаш.
11.00 «Уорлднет» телекомпаниясининг янгиликлари [АҚШ].
11.30 Бошланғич таълим. «Алифбо байрами».
* * *
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 Янгиликлар.
18.10 «Кичкинтой» студияси. «Қўғирчоқлар — менинг дўстларим».
18.55 «Спортлото».
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Қўшиқларда қолган муҳаббат». Бахтиёр Йўлдошев.
19.55 Эълонлар.
20.00 Дунё хабарлари.
20.10 «Уни халқ танлади...». Ўзбекистон халқ депутати И. Файзуллаев.
20.30 «Ўзбекистон» ахбороти.
20.55 «Оқшом эртаклари».
21.10 Эстрада концерти.
22.10 «Қувноқ эскадрон». Бадиий фильм.
23.15 Футбол бўйича Ўзбекистон чемпионати. «Бинокор» [Қибрай] — «Нурафшон» [Бухоро]. Ёзиб олинган.
24.00 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
«ТОШКЕНТ»
СТУДИЯСИ КЎРСАТАДИ
18.30 «Уолт Дисней таништиради...». Мультфильмлар тўплами.
19.20 «Мусиқий меҳмонхона».
20.00 «Алоқалар ва шартномалар».
20.30 «Бу оқшомда».
21.40 Эълонлар. «Кинонигоҳ».

● «ОРБИТА IV»
4.55, 14.20, 17.20, 20.20, 23.35— Кўрсатувлар тартиби.
5.00 Янгиликлар.
5.35 Эрталабки гимнастика.
5.45 «Тонг».
8.00 Янгиликлар.
8.20 «Қувноқ нотачалар».
8.35 Мультфильм.
8.45 «Оддий Мария». Кўп серияли телевизион бадиий фильм премьераси.
9.30 «Садовое кольцодаги саройда».
10.00 «Истеъдодлар ва мухлислар».
10.50 «Матбуот-экспресс».
11.00 Янгиликлар.
Кундузги киноэкспресс
11.20 «Приморье хиёбони». Телевизион бадиий фильм. 1 ва 2-сериялар.
13.30 «Изтироб». Телевизион бадиий фильм.
*
14.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
14.25 «Ишбилармонлар хабарномаси».
14.40 «Ён дафтар».
14.45 Саха Республикаси Давлат рақс театрининг концерти [Ёқутистон].
15.20 «Мен шундай ўйлайман...». Телеочерк.
15.30 «КОАПП». Мультфильм. 13—14-сериялар.
16.00 «Игорь Тальков: Россия — қалбим изтироби».
17.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
17.25 Давлатлараро «Останкино» телеканали «Лучегорскнинг икки сири» кўрсатувини таништиради.
18.00 «Оддий Мария». Кўп серияли телевизион бадиий фильм премьераси.
18.45 «Миниатюра». Мусиқий кўрсатув.
18.55 «Мавзу».
19.40 Хайрли тун, кичкинтойлар!
19.55 Эълонлар.
20.00 Янгиликлар.
20.25 «Оппоқ либослар». Етти серияли телевизион бадиий фильм премьераси. 2-серия.
21.45 «Матбуот-экспресс».
21.55 Союзлар уйининг Колонна залида Катта симфоник оркестрнинг чиқиши. Дирижёр — В. Федосеев.
23.00 Янгиликлар.
23.40 «Овозли йўлка».
00.10 «L—клуб».

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.25 Ишбилармон кишилар даври.
7.55 Мульти-пульти.
8.15 «Ҳақиқат онлари».
9.10 «Параллеллар».
9.25 Анастасия куйлайди.
10.15 Мульти-пульти.
10.25 «Тверскаядан қовоқхона».
11.10 Кундузги сеанс. «Ҳазил». Бадиий фильм.
12.40 «Деҳқонларга таалуқли масала».
13.05 «Кечки салон» саҳифалари.
14.40 Телебиржа.
15.10 Янгиликлар.
15.25 «Рост» студияси. «Мусиқий синф». 1-қисм.
15.55 Трансросэфир. «Космополис».
16.40 «Жаноблар-ўртоқлар».
*
17.00—21.30
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
21.30 «Шов-шувсиз ғолиблар».
22.00 «Бор-йўғи 17 соат ва... Мексика».
22.25 Россия Федерацияси Олий Кенгашининг сессиясида.
22.40 Спорт кўрсатуви.
22.45 Санкт-Петербург балети. «Фаррух Рўзиматов». Артистнинг ижодий портрети.
23.25 Джаз куйларидан концерт.

Чоршанба, 7. IV

● ЎзТВ I
7.00 «Ўзбекистон» ахбороти.
7.25 «Аския». Телефильм.
8.10 Дунё хабарлари.
8.20 «Ғаройиб ҳодиса». Бадиий фильм.
9.25 Турк тили.
9.55 «Саховат».
10.30 Ўқув кўрсатуви. Ботаника. Замбуруғлар.
11.00 «Уорлднет» телекомпаниясининг янгиликлари [АҚШ].
11.30 Ўқув кўрсатуви. Тарих. XIX асрнинг охирлари ва XX аср бошларида Туркистон халқларининг мустамлака тартибларига қарши олиб борган курашлари.
* * *
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 Янгиликлар.
18.10 Миллий кураш бўйича халқаро турнир. 1-кўрсатув.
18.40 «Буюк Ипак йўли». Телефильм.
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Санъат олами».
19.55 Эълонлар.
20.00 Дунё хабарлари.
20.10 «Халқ ижодиёти». Катта ашула.
20.30 «Ўзбекистон» ахбороти.
20.55 «Оқшом эртаклари».
21.10 «Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Икромжон Бўронов куйлайди». Видеофильм.
22.10 «Нафақа ва ижтимоий муҳофаза». Бевосита мулоқот.
23.10 «Инсон қалби ҳақида қисса». Бадиий фильм. 1-серия.
00.15 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
«ТОШКЕНТ»
СТУДИЯСИ КЎРСАТАДИ
18.30 «Билим сарчашмалари».
19.10 «Спринт».
19.30 «Тошкент: шаҳар юмушлари».
20.30 «Мен қайтганимда...».
21.15 «Қизиқарли учрашувлар».
22.30 «Водилик келин». Бадиий фильм.

● «ОРБИТА IV»
4.55, 14.20, 17.20, 20.20 — Кўрсатувлар тартиби.
5.00 Янгиликлар.
5.35 Эрталабки гимнастика.
5.45 «Тонг».
8.00 Янгиликлар.
8.20 «Йўлдаги эртак». Мультфильм.
8.35 «Оддий Мария». Кўп серияли телевизион бадиий фильм премьераси.
9.20 «Лўлилар бахти». Телефильм премьераси [«Иркутсктелефильм»].
10.00 «Бизнинг мусиқий клуб».
10.50 «Матбуот-экспресс».
11.00 Янгиликлар.
Кундузги киноэкспресс
11.20 «Соҳил». Телевизион бадиий фильм. 1 ва 2-сериялар.
13.30 Мультфильмлар: «Ҳамма гап шляпада», «Сирли сайёра».
*
14.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
14.25 «Телемикст».
15.10 «Ён дафтар».
15.15 «КОАПП». Мультфильм. 15—17-сериялар.
15.45 «Джем».
16.15 «Клуб 700».
16.50 «Технодром».
17.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
17.25 Давлатлараро «Останкино» телеканали «Здоровенькi булы» кўрсатувини таништиради.
17.50 «Мулкдор алифбоси».
18.05 «Оддий Мария». Кўп серияли телевизион бадиий фильм премьераси.
18.50 «Актёрлар, актёрлар, актёрлар...». Премьерадан сўнг: мулоҳазалар, учрашувлар, тақдирлар.
19.40 Хайрли тун, кичкинтойлар!
19.55 Эълонлар.
20.00 Янгиликлар.
20.25 «Оппоқ либослар». Етти серияли телевизион бадиий фильм премьераси. 3-серия.
21.50 «ТВ-версия».
22.30 «Матбуот-экспресс».
22.40 «Атар муюлиши». Телефильм.
23.00 Янгиликлар.
23.35 Футбол. Чемпионлар лигаси. «Гётеборг» [Швеция]— — «Милан» [Италия]. Швециядан олиб кўрсатилади.

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.25 Ишбилармон кишилар даври.
7.55 Тонгги концерт.
8.10 «Шов-шувсиз ғолиблар».
8.40 Мульти-пульти.
8.50 «Тилла новда».
9.20 Санкт-Петербург балети. «Фаррух Рўзиматов», Артистнинг ижодий портрети.
10.00 «Сафсаталар».
10.30 «Ретро-шлягер».
11.00 Джаз куйларидан концерт.
11.30 Ишдан бўш пайтингизда. «Балиқ белгиси остида».
11.45 Кундузги сеанс. «Жаноб безатувчи». Бадиий фильм.
13.25 «Деҳқонларга таалуқли масала».
13.50 «Пилигрим». Россия саёҳатлар бюроси.
14.40 «Бизнес: янги номлар».
14.55 Янгиликлар.
15.10 «Рост» студияси. «Мусиқий синф». 2-қисм.
15.40 Трансросэфир. «Узоқ Шарқ».
16.25 Христианлар учун кўрсатув.
*
17.00—21.25
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
21.25 «Кулги қироллари».
21.55 «Жонланган суратлар».
22.40 Криминал хабарлар экрани.
22.50 Баскетбол шарҳи.

Пайшанба, 8. IV

● ЎзТВ I
7.00 «Ўзбекистон» ахбороти.
7.25 «Тилларанг риштлар жозибаси». Телефильм.
7.40 «Баъзида эслаб қўй». Бадиий фильм.
9.10 Дунё хабарлари.
9.20 Араб тили.
9.50 Болалар учун. «Илҳом чашмалари».
10.30 Ўқув кўрсатуви. Зоология. Туёқли ҳайвонлар.
11.00 «Уорлднет» телекомпаниясининг янгиликлари [АҚШ].
* * *
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 Янгиликлар.
18.10 Миллий кураш бўйича халқаро турнир. 2-кўрсатув.
18.45 «Қалб садолари». «Ўзбектелефильм» премьераси.
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Назорат ойнаси».
19.55 Эълонлар.
20.00 Дунё хабарлари.
20.10 Чолғу куйларидан концерт.
20.30 «Ўзбекистон» ахбороти.
20.55 «Оқшом эртаклари».
21.10 «Бозор иқтисодиёти босқичлари».
21.40 «Нафосат» телеойномаси.
22.40 «Инсон қалби ҳақида қисса». Бадиий фильм. 2-серия.
23.55 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
«ТОШКЕНТ»
СТУДИЯСИ КЎРСАТАДИ
18.30 Болалар учун. «Табассум».
19.00 «Шарқ лирикаси».
19.20 «Бумеранг». Экологик кундалик.
20.00 «Пульс». Хабарлар.
20.15 «Бу оқшомда».
21.30 «Пульс». Хабарлар.
21.45 Эълонлар. «Кинонигоҳ».

● «ОРБИТА IV»
4.55, 14.20, 17.20 — Кўрсатувлар тартиби.
5.00 Янгиликлар.
5.35 Эрталабки гимнастика.
5.45 «Тонг».
8.00 Янгиликлар.
8.20 Мультфильмлар: «Икки аймқча», «Қўлга тушган мушук».
8.45 «Оддий Мария». Кўп серияли телевизион бадиий фильм премьераси.
9.30 «Украинча гап-гаштаклар».
10.10 «...16 ёшгача ва ундан катталар».
10.50 «Матбуот-экспресс».
11.00 Янгиликлар.
11.20 Футбол. Чемпионлар лигаси.
13.00 «Ибодатхонага қайтиш».
14.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
14.25 «Телемикст».
15.10 «Ён дафтар».
15.15 «Читтакнинг календари. Қиш. Баҳор». Мультфильм.
15.35 Ф. Шопен асарларидан концерт.
16.00 «Катин иши». Телефильм премьераси [Германия].
17.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
17.25 «...16 ёшгача ва ундан катталар».
18.15 «Оддий Мария». Кўп серияли телевизион бадиий фильм премьераси.
19.00 «Катта сайр».
19.40 Хайрли тун, кичкинтойлар!
19.55 Эълонлар.
20.00 Янгиликлар.
20.20 Футбол. Чемпионлар лигаси.
21.10 1993 йил қўшиқлари.
22.15 «Парадиз-коктейль».
23.00 Янгиликлар.
23.35 «Матбуот-экспресс».

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.25 Ишбилармон кишилар даври.
7.55 «Эски шаҳарнинг янги даври».
8.40 «Сиз яратган боғ».
9.10 «Галина-Лина» хит-дуэти.
9.40 «Ўз-ўзига режиссёр».
10.10 Театр сафари. «И. Ром-Лебедев хотирасига».
11.10 Мульти-пульти.
11.30 «Параллеллар».
11.50 Кундузги сеанс. «Санта-Барбара». Кўп серияли бадиий телефильм. 150 ва 151-сериялар.
13.30 «Деҳқонларга таалуқли масала».
13.55 М. Равель. «Сеҳрли воеа».
14.50 «Болалар роль ўйнайдиган театр».
15.35 Янгиликлар.
15.50 Трансросэфир. «Хусусийлаштириш панорамаси».
16.35 «М-трест».
16.50 Спорт кўрсатуви.
*
17.00—21.25
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
21.25 Футбол. Кубок эгаларининг кубоги. Ярим финал. «Спартак» (Москва) — «Антверпен» (Бельгия).
23.20 «Сиёсат майдонида».
00.15 «Теннис академиклари».

Жума, 9. IV

● ЎзТВ I
7.00 «Ўзбекистон» ахбороти.
7.25 «Қадрдонлар кўчаси». Фильм-концерт.
7.50 Дунё хабарлари.
8.00 «Қароқчи чоллар». Бадиий фильм.
9.25 «Эл хизматида». Ургут маиший хизмат уйи.
9.55 «Бутун умр давомида». Телефильм.
10.15 «Уорлднет» телекомпаниясининг янгиликлари [АҚШ].
* * *
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 Янгиликлар.
18.10 «Нақшлар бўстони». «Ўзбектелефильм» премьераси.
18.25 «Кичкинтой» студияси. «Табиат алифбоси».
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Ижод саҳифалари». Олим Кўчқорбеков.
19.55 Эълонлар.
20.00 Дунё хабарлари.
20.10 «Билиб қўйган яхши».
20.30 «Ўзбекистон» ахбороти.
20.55 «Оқшом эртаклари».
21.10 Мақом куйларидан концерт.
21.40 «Инсон ва замин».
22.40 Футбол бўйича Ўзбекистон чемпионати. «Сўғдиёна» [Жиззах] — «Нурафшон» [Бухоро]. Ёзиб олинган.
00.10 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
БИШКЕК КЎРСАТАДИ
18.30 Хабарлар [рус тилида].
18.40 «Қимматбаҳо бандероль» Мультфильм.
18.50 «Кенеш» [рус тилида].
19.30 Хабарлар.
19.40 «Оз укугунду билесинби!».
19.50 «Хоразм». Манзарали телефильм.
20.00 «ТСК». «Указлар эмнеге аккарилбайт!».
20.30 «Экономикалик баяндама».
20.40 «Жаздин бир куну жил агиги берет».
21.00 «Матонат». Кўрсатувда Қирғизистон Республикаси Ички ишлар вазири А. Суталинов иштирок этади.
21.30 Хабарлар [қирғиз ва рус тилларида].
21.50 «Назар» [билдирувлар, эълонлар].
21.55 «Эиг ёқимли ва жозибадор». Бадиий фильм.

● «ОРБИТА IV»
4.55, 14.20, 18.20, 20.20 —Кўрсатувлар тартиби.
5.00 Янгиликлар.
5.35 Эрталабки гимнастика.
5.45 «Тонг».
8.00 Янгиликлар.
8.20 «Джем».
8.50 Болалар учун фильм. «Зангори патруль».
9.55 «Саёҳатчилар клуби» [сурдо таржимаси билан].
10.50 «Матбуот-экспресс».
11.00 Янгиликлар.
11.20 Театр шинавандалари, Сизлар учун! Ю. О' Нил. «Узун кундан кейинги тун». Россия Давлат академик Малий театрининг фильм-спектакли.
14.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
14.25 «Бридж».
14.50 «Бизнес-класс».
15.05 «Ён дафтар».
15.10 Болалар учун фильм. «Зангори патруль».
16.15 Липецк фольклор ансамблининг чиқиши.
16.30 «Иш».
17.00 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
17.25 Давлатлараро «Останкино» телеканали «Маккага йўл» кўрсатувини таништиради. МДҲлик зиёратчи репортажи.
17.50 «Инсон ва қонун».
18.15 «Вагон-03».
18.45 «Мўъжизалар майдони».
19.40 Хайрли тун, кичкинтойлар!
19.55 Эълонлар.
20.00 Янгиликлар.
20.25 «Ҳафтанинг машҳур кишиси».
20.40 «Оппоқ либослар». Етти серияли телевизион бадиий фильм премьераси. 4-серия.
22.00 Катталар учун мультфильм.
22.10 «Матбуот-экспресс».
«ВИД» таништиради:
22.25 «Сиёсий бюро».
23.35 «Музобоз».
00.15 «Обоз» майдончаси». «Рондо» гуруҳи. Танаффус пайтида [23.00] — Янгиликлар.

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.25 Ишбилармон кишилар даври.
7.55 «Сиёсат майдонида».
8.55 Футбол. Кубок эгаларининг кубоги.
10.45 Мульти-пульти.
10.55 «Ишдан бўш пайтингизда».
11.10 Кундузги сеанс. «Санта-Барбара». Кўп серияли бадиий телефильм. 152-серия.
12.00 «Жонланган суратлар».
12.45 «Деҳқонларга таалуқли масала».
13.10 «Ижица».
13.40 «Ҳайвонот оламида».
14.40 Телебиржа.
15.10 Янгиликлар.
15.25 «Рост» студияси. «15 ёшли капитан».
15.55 Жума кунлари Дисней. «Ер сайёрасига юборилган». Бадиий фильм. 5-серия.
16.45 Парламент хабарномаси.
*
17.00—19.00
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
19.00 «К-2» таништиради. «Оскар-93». Голливуддан кўрсатув.
20.45 «Келинг, аниқлаб олайлик».
*
21.00—24.00
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ

Шанба, 10. IV

● ЎзТВ I
7.00 «Ассалому алайкум».
*
8.00 Дунё хабарлари.
8.10 «Огарёва, 6». Бадиий фильм.
9.35 «Алифбо сабоқлари».
10.05 «Истиқлол фидойилари». Навоий вилояти Олтинсой давлат хўжалиги бош чўпони Ж. Хўжамуродов ҳақида телеочерк.
10.20 Болалар учун. «Санъат ғунчалари».
10.50 «Чорраҳа».
11.20 «Грифон» мукофотининг совриндорлари. «Ўзбектелефильм» студияси.
12.20 «Саноат одимлари».
12.50 Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги намунали оркестрининг концерти.
13.30 «Бу турфа олам».
* * *
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 Ўсмирлар учун. «Ўйла! Изла! Топ!».
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Оламга саёҳат». Кинокўрсатув.
20.05 «Ватан меҳри». Адабий кўрсатув.
20.30 «Туркистон» ахбороти.
21.00 «Оқшом эртаклари».
21.15 «Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Муножот Йўлчиева куйлайди». Видеофильм премьераси.
22.15 «Қўшқопқон». Бадиий фильм. 1-серия.
23.20 Футбол бўйича Ўзбекистон чемпионати. «Трактор» [Тошкент] — «Пахтакор». Ёзиб олинган.
00.05 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
17.00 АШҒАБАТ КЎРСАТАДИ

● «ОРБИТА IV»
5.45, 7.30, 14.20, 20.20, 23.35 — Кўрсатувлар тартиби.
5.50 Эрталабки гимнастика.
6.00 «Матбуот-экспресс».
6.10 Ишбилармон кишининг шанба тонги.
6.55 Янгиликлар.
7.35 «Спорт-имконият».
8.10 «Марафон-15» — кичкинтойларга.
8.35 Шанба кунги дастхат.
9.05 «Экстро—НУЖ».
9.35 Экологик шарҳ.
9.50 «Алвидо, фалсафа!». Телефильм.
10.25 «Веди».
11.05 Тиббиёт ҳамма учун.
11.45 «Мулкдор алифбоси».
11.55 «Қизил космос». Телевизион ҳужжатли фильм премьераси.
12.25 «Ўтмишда». «Максимка». Бадиий фильм [Киев киностудияси, 1952 й.].
14.00 Янгиликлар.
14.25 Союзлар уйининг Колонна залида Владияр концерти.
15.25 «Ишонч куни».
15.35 «Сеними, шошмай тур!». Мультфильм. 15 ва 16-фильмлар [25 йиллик юбилейига].
16.00 «Ультра-си». Спорт кўрсатуви. Футбол. Ёшлар командалари ўртасида жаҳон чемпионати.
16.55 «Қизил квадрат».
17.35 «Ҳайвонот оламида».
18.15 «Оба-На-Угол-шоу».
18.45 «Коламбия пикчерс» таништиради. «Зулматдаги отишмалар». Бадиий фильм премьераси. «Майк Хаммер» телесериалидан.
19.40 Хайрли тун, кичкинтойлар!
19.55 Эълонлар.
20.00 Янгиликлар.
20.25 «Коламбия пикчерс» таништиради. «Анна Каренина». Телевизион бадиий фильм премьераси. 1-серия.
21.20 «Ҳеч нарса ҳақида репортаж».
21.30 «Брейн-ринг».
22.20 «Қорқиз ва етти гном». Э. Рязанов Л. Парфенов билан суҳбатлашади.
23.00 Янгиликлар.
23.40 «Любэ»: янги диск, янги клип».
24.00 «Матбуот-экспресс».
00.10 «Сно-видение» тунги канали.

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.20 «Оламга ўз нигоҳи билан қараш».
7.45 «Амурлар ҳамиша ғолиб». Мультфильм.
7.55 «Формула-730».
8.25 «Рост» студияси. «Бизнинг «Аралаш-қуралаш».
8.55 «Ҳали англанмаган ноинот».
9.25 «Бурда моден» тавсия этади...
9.55 «Мансаб алифбоси».
10.10 Такрорий фильмлар кинотеатри. «Санников ери». Бадиий фильм.
*
11.40—15.00
«ЎЗБЕКИСТОН»
ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛИ
1. «Севги куйчиси». Композитор Манас Левиев.
2. «Интерспорт».
3. Баҳор тароналари.
4. «Цирк! Цирк! Цирк!».
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
15.00 «Андишаларга бормай». Оламоннинг руҳий ҳолати ҳақида фильм.
15.55 «Чегарасиз футбол».
16.50 Спорт кўрсатуви.
*
17.00—21.25
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
21.25 «Мутлақо махфий».
22.20 «Шарман-шоу».
23.50 «К-2» таништиради. «Америка юлдузлари».
00.25 Тунги сеанс. «Чукотка бошлиғи». Бадиий фильм.

Якшанба, 11. IV

● ЎзТВ I
7.00 Ўзбекистон халқ артисти Рўзимбек Муродов куйлайди.
*
8.00 «Туркистон» ахбороти.
8.30 «Маҳобҳорат». Кўп қисмли телевизион бадиий видеофильм [Ҳиндистон]. 11-серия.
9.15 «Ўзбекистон спорти».
9.45 Инглиз тили.
10.15 «Деҳқончилик ва экология».
10.35 «Мўъжизалар масканй». Масхарабоз Акром Юсупов ижоди.
11.35 «Мактаб ва ҳаёт».
12.15 «Ватанпарвар». Олмонияда йигитлик бурчини ўтаётган ўзбекистонлик аскарлар ҳақида.
13.15 «Мулоҳаза». Адабиёт ва маънавият.
* * *
17.55 Кўрсатувлар тартиби.
18.00 «Ёр истаб». Мусиқий лавҳа.
18.10 «Ёшлик» студияси. «Узингни эр билсанг».
19.00 «Ўзбекистон» ахбороти [рус тилида].
19.20 «Лайлаклар». «Ўзбектелефильм» премьераси.
19.30 Жаҳон спорти янгиликлари.
19.40 «Мусиқа жавони».
20.30 «Ўзбекистон» ахбороти.
21.00 «Вилоят театрларида». Йўлдош Охунбобоев номидаги Андижон мусиқий театрининг «Тоҳир ва Зуҳра» спектакли премьераси.
22.50 «Қўшқопқон». Бадиий фильм. 2-серия.
23.55 Эртанги кўрсатувлар тартиби.

● ЎзТВ II
БИШКЕК КЎРСАТАДИ
9.05—12.10 «Хуш хабарлар»; «Жилдиздду бала»; «Баластандин мейманканасинда»; «Кимде кунос!». 1-кўрсатув; «Бабалардан калган соз»; мультфильм.
* * *
18.05 «Степа — денгизчи». Мультфильм.
18.30 Телетомошабинларнинг талабларига биноан концерт [рус тилида].
19.30 Хабарлар [рус тилида].
19.45 «Дидарлашуу».
20.15 «Қумдаги этюдлар». Телефильм.
20.30 Хабарлар.
20.45 Т. Исмонлов. «Авийирдати». «Телеспектакль».

● «ОРБИТА IV»
5.50, 7.30, 14.15, 23.15 — Кўрсатувлар тартиби.
5.55 «Руҳни чиниқтириш».
6.55 Янгиликлар.
7.35 Эрталабки гимнастика.
7.45 «Спортлото» тиражи.
8.00 «Марказ».
8.30 «Эрта саҳарлаб». «Денвер — динозаврларнинг энг сўнггиси». Кўп серияли мультфильм премьераси [Франция].
9.00 «Ҳозирча ҳаммаси жойида».
9.30 «Тонг юлдузи».
10.20 «Соло».
10.50 «Ҳарбий ревю».
11.25 «Ишқий ёзишмалар» ёки «Соня билан Америка томон саёҳат».
11.50 «Қора кўркам от саргузаштлари». Болалар учун кўп серияли телефильм премьераси.
12.15 «Марафон-15» — старт».
«КВТ-I» ва «Франс интернасиональ» канали таништиради:
13.00 «Пиф ва Геркулес». Кўп серияли мультфильм премьераси.
13.10 «Кусто командасининг сувости одиссеяси». Кўп серияли ҳужжатли фильм премьераси.
*
14.00 Янгиликлар.
14.20 Халқ оҳанглари.
14.30 «Саёҳатчилар клуби».
15.20 Мультфильмлар премьераси: «Каспер ва унинг дўстлари», «Ҳақиқий ажина овловчилар».
16.20 Эфирда бевосита мулоқот.
17.00 «Панорама». Ҳафталик халқаро кўрсатув.
17.45 Янгиликлар [сурдо таржимаси билан].
18.00 «Донишманд». «Ленком» Москва театри фильм-спектаклининг премьераси. А. Н. Островскийнинг «Ҳар тўкисда бир айб» пьесаси асосида.
20.55 Эълонлар.
*
21.00 «Якунлар».
21.45 «Орзулар вокзали». Юрий Башмет.
22.40 «Ғам-андуҳимни орқага ташлаб». Телефильм.
23.00 Янгиликлар.
23.20 Бутунроссия инобозори.
24.00 Футбол. «Уэмбли сари йўл».

● «ДУБЛЬ IV»
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
7.20 «Шамол учиб ўтади». Ҳужжатли фильм.
8.05 «Танаффус».
8.15 «Қувноқ Греция». Мультфильм.
8.25 «Гап-гаштакларни қўмсаб».
8.55 «Рост» студияси. «Куни узайтирилган группа».
9.25 «Фольклор».
9.55 «03» кўрсатуви.
10.25 «Ати-бати...».
*
10.55—15.25
«ЎЗБЕКИСТОН»
ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛИ
1. «Жаҳон ва биз».
2. «Умид» (уйғур тилида).
3. «Коинотнинг сирли олами».
4. «Рангинкамон» (тожик тилида).
5. «Замандас» (қозоқ тилида).
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
15.25 «Оқ қарға».
16.10 Диснейнинг сеҳрли олами. «Винни-Пухнинг янги саргузаштлари», «Қора плашч».
*
17.00—19.25
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
*
РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ
19.25 Си-Би-Эс кинотеатри. «Джулия нима бўлади?» Бадиий фильм (АҚШ).
*
21.00—24.00
ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ

Тошкент Давлат Шарқшунослик институти жамоаси «Халқаро маркетинг ва менежмент» кафедрасининг мудири, профессор Б. М. Турсуновга оналари **Салима ТУРСУНОВАнинг** вафот этганлиги муносабати билан чуқур таъзия изҳор қилади.



МУАССИСЛАР:
Халқ депутатлари Тошкент шаҳар Кенгаши ва «Тошкент оқшоми» журналистларининг жамоаси

Тошкент оқшоми

Газета Ўзбекистон Республикаси Давлат матбуот қўмитасида рўйхатга олинган. Рўйхат сони — 000101.

Шанба ва якшанбадан ташқари ҳар куни ўзбек тилида чиқади.

ТЕЛЕФОНЛАР:
хатлар — 33-29-70;
эълон ва тижорат хабарларини жойлаштириш масалалари бўйича
32-81-42, 32-55-34, 33-56-67.

Эълонлар ва тижорат хабарлари аниқ ва тўғрилиги учун жавобгарлик уларни берган ташкилот ва шахслар зиммасидадир.

МАНЗИЛГОҲИМИЗ: 700000, ГСП, Тошкент, Ленинград кўчаси, 32-уй.
Буюртма Г—173. 19899 нусхада босилди, ҳажми — 2 босма табоқ. Офсет усулида босилган, Қоғоз бичими А—2. Нашр кўрсаткичи 64690.

■ Босмага бериш вақти 11.30

■ Босмага берилди 11.30. Ўзбекистон Республикаси Президенти Маҳкамасининг Ишлар бошқармаси ҳузуридаги «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни.
Корхона манзили: «Буюк Турон» кўчаси, 41-уй. 1 2 3 4 5 6